



**OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

TUYUTORLAR FAOLIYATINI BOSHQARISH VA NAZORAT QILISH

O'quv-uslubiy majmua



2025



+99871-202-01-20

<https://bimm.uz>

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**“TUYUTORLAR FAOLIYATINI BOSHQARISH VA NAZORAT
QILISH” MODULI BO‘YICHA**

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Toshkent – 2025

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: **L. Mingishov** – iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Yoshlar siyosati va ma’naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi bosh mutaxassisi

Taqrizchi: **X. Eshov** - siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

*O‘quv-uslubiy majmua oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2024-yil 27-dekabrda 3-son bayonini 4.2-qarori)*

MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR	4
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI	10
III.	NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MATERIALLARI	17
IV.	SEMINAR-TRENING MASHG‘ULOTI MATERIALLARI	62
V.	ADABIYOTLAR RO‘YXATI	81



I. ISHCHI DASTUR

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Ushbu ishchi dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida" Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" PF-14-son, 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-son Farmonlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida" 797-son hamda 2024-yil 11-iyuldagi "Oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlarining tyutorlar faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish, tyutorlar faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, tyutorlarning ish faoliyatini nazorat qilish mezonlari, tyutorlarning talabalarga yetakchilik va motivatsiya berishdagi roli, motivatsiya strategiyalari va individual yondashuvlar, tyutorlik faoliyatida kuzatuv va monitoring tizimlarining ahamiyati bo'yicha bilim va ko'nikmalarini yanada rivojlantirishni maqsad qiladi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: tinglovchilarni oliy ta'lim muassasalarida tyutorlar faoliyatini boshqarish va nazorat qilish bo'yicha bilimlarini takomillashtirish, ushbu sohada amalga oshirilayotgan yangicha yondashuvlar bilan yaqindan tanishtirish va sohadagi muammolarni aniqlash, tahlil etish va baholash bilan bog'liq ko'nikma va malakalarini yangilash hisoblanadi.

Modulning vazifalari:

- tyutorlik tizimining ta'lim muassasasidagi o'рни va ahamiyatini yoritib berish;

- tyutorlarning ish faoliyatini nazorat qilish mezonlari bo'yicha chuqur bilim olishni ta'minlash;
- tyutorlar faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish borasidagi nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish;
- tyutorlik faoliyatida kuzatuv va monitoring tizimlaridan samarali foydalanish;
- tyutorlik tizimining ta'lim sifatiga ta'sirini tahlil etish va baholash.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Tuyutorlar faoliyatini boshqarish va nazorat qilish” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- tyutorlik tizimining ta'lim muassasasidagi o'rni va ahamiyatini;
- talabalar bilan ishlashda individual va jamoaviy yondashuvlarni;
- talabalar orasida g'oyaviy immunitetni oshirish usullarini;
- madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va ularning talabalarga ta'sirini;
- stress va nizolarni boshqarish strategiyalarini;
- tyutorlarning ish faoliyatini nazorat qilish mezonlarini;
- faoliyat samaradorligini oshirish uchun tahliliy yondashuvlarni;
- motivatsiya strategiyalari va individual yondashuvlarni **bilishi** lozim.

Tinglovchi:

- tyutorlar tomonidan amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejalarini ishlab chiqish;
 - tyutorlar faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish;
 - tuyutorlar faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;
 - digital vositalar va platformalardan foydalanish;
 - tyutorlarning talabalarga yetakchilik va motivatsiya berishdagi rolini o'rganish;
 - tyutorlik tizimining ta'lim sifatiga ta'sirini baholash;
 - ijtimoiy tarmoqlarda talabalarning ma'naviy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash
- ko'nikma va malakalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- tyutorlik faoliyatini nazorat qilish va samaradorligini baholash;
- tyutorlarning ish natijalarini tahlil qilish va hisobot berish;
- elektron hujjat aylanishi va ish jarayonlarini raqamlashtirish;
- tyutorlik faoliyatida kuzatuv va monitoring tizimlarining ahamiyatini yoritib berish;
- talabalarda jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirish;

- tyutorlarning talabalarga yetakchilik va motivatsiya berishdagi rolini baholash **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Tyutorlar faoliyatini boshqarish va nazorat qilish” moduli ma’ruza, seminar-trening mashg‘ulotlari shaklida olib boriladi.

O‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan.

Ma’ruza va seminar-trening mashg‘ulotlar munozara va debat, ilmiy baxs va muhokama shaklida, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llagan holda, zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalar asosida tashkil etiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Tyutorlar faoliyatini boshqarish va nazorat qilish” moduli o‘quv rejadagi **“Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish”**, **“Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning strategik boshqaruvi”** modullari bilan o‘zaro bog‘liq hamda uslubiy jihatdan uzviy bog‘langan holda rahbar kadrlarning tyutorlar faoliyatini boshqarish va nazorat qilish ishlarni tizimli tashkil etish masalalarini o‘rganish, ularni tahlil etish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

“Tyutorlar faoliyatini boshqarish va nazorat qilish” modulini o‘zlashtirish orqali tinglovchilar tyutorlar faoliyatini tashkil etish va rejalashtirishga oid kasbiy bilim va malakalarga ega bo‘ladilar.

MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	seminar-trening
1.	Tyutorlik tizimining ta’lim muassasasidagi o‘rni va ahamiyati	2	2	
2.	Talabalar orasida g‘oyaviy immunitetni oshirish usullari	2	2	
3.	Tyutorlar faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish	6	2	4

4.	Tyutorlik faoliyatini nazorat qilish va samaradorligini baholash	4		4
5.	Tyutorlarning talabalarga yetakchilik va motivatsiya berishdagi roli.	4		4
Jami:		18	6	12

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: TYUTORLIK TIZIMINING TA’LIM MUASSASASIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI. (2 soat)

Tyutorlik tizimining ta’lim muassasasidagi o‘rni va ahamiyati. Tyutorlar faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish. Talabalar bilan ishlashda individual va jamoaviy yondashuvlar. Tyutorlar tomonidan amalga oshiriladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar rejalari.

2-MAVZU: TALABALAR ORASIDA G‘OYAVIY IMMUNITETNI OSHIRISH USULLARI.(2 soat)

Talabalar orasida g‘oyaviy immunitetni oshirish usullari. Madaniy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish va ularning talabalarga ta’siri. Tyutorlarning talabalarga psixologik yordam ko‘rsatish ko‘nikmalari. Stress va nizolarni boshqarish strategiyalari.

3-MAVZU:TYUTORLAR FAOLIYATIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. (2 soat)

Tyutorlar faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Digital vositalar va platformalardan foydalanish bo‘yicha ko‘nikmalar.

SEMINAR-TRENING MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU:TYUTORLAR FAOLIYATIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. (4 soat)

Tyutorlar faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Digital vositalar va platformalardan foydalanish bo‘yicha ko‘nikmalar. Ijtimoiy tarmoqlarda talabalarning ma’naviy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash. Elektron hujjat aylanishi va ish jarayonlarini raqamlashtirish.

2-MAVZU: TYUTORLIK FAOLIYATINI NAZORAT QILISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH.(4 soat)

Tyutorlik faoliyatini nazorat qilish va samaradorligini baholash. Tyutorlarning ish faoliyatini nazorat qilish mezonlari. Tyutorlarning ish natijalarini tahlil qilish va hisobot berish. Faoliyat samaradorligini oshirish uchun tahliliy yondashuvlar.

3-MAVZU: TYUTORLARNING TALABALARGA YETAKCHILIK VA MOTIVATSIYA BERISHDAGI ROLI. (4 soat)

Tyutorlarning talabalarga yetakchilik va motivatsiya berishdagi roli. Motivatsiya strategiyalari va individual yondashuvlar. Talabalarda jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirish. Tyutorlik tizimining ta'lim sifatiga ta'siri. Tyutorlik faoliyatida kuzatuv va monitoring tizimlarining ahamiyati.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modulning ma'ruza va seminar-trening mashg'ulotlarini o'qitishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ma'ruza mashg'ulotlari (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- seminar-trening mashg'ulotlari davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida” Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrda qabul qilingan “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida” Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” PF-5847- sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabr “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” PF-6097-sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O'zbekiston - 2030” strategiyasi to'g'risida” PF-158-son Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi “Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-200-son Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi “Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” PQ-54-son Qarori.

II. Maxsus adabiyotlar

1. O.Ummatov, B.Husanov, S.Xudoyqulov, M.Boysariyev, A.Amonov, N.Do'simbetova, O.Ernazarov, N.Eshnayeve, S.Mirzayeva. Oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini amalga oshirish (takliflar, tavsiyalar, uslublar). O'quv qo'llanma –Toshkent. 2023
2. Erkin Umarov, Mahmud Abdullayev “Ma'naviyat asoslari”. O'quv qo'llanma -T., 2006.
3. M.Handamova “Ma'naviyat asoslari”. O'quv-uslubiy qo'llanma – Samarqand. 2014.
4. Durlak, J. A., Weissberg, R. P., Dymnicki, A. B., Taylor, R. D. & Schellinger, K. B. (2011). The impact of enhancing students' social and emotional learning: A meta-analysis of school-based universal interventions.
5. Finkelhor, D. (2014). *Child Development*, 82(1): 405–432 Commentary: Cause for alarm? Youth and internet risk research—a commentary on Livingstone and Smith (2014). *Journal of Child Psychology and Psychiatry*
<http://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1111/jcpp.12260/full>
6. Gaiman N. (2013). Why our future depends on libraries, reading and daydreaming <https://www.theguardian.com/books/2013/oct/15/neil-gaiman-future-libraries-reading-daydreaming>
7. Williams L. (2015) Cyberbullying & Cyber Threats to Young People. <https://www.nonprofitrisk.org/resources/articles/cyberbullying-cyber-threats-to-young-people/>

Sh. Elektron ta'lim resurslari

1. <http://www.lex.uz>
2. <http://www.norma.uz>
3. <http://www.yuz.uz>
4. [http:// www.strategy.uz](http://www.strategy.uz)
5. <https://president.uz>
6. [http:// www.edu.uz](http://www.edu.uz)
7. [http:// www.lib.bimm.uz](http://www.lib.bimm.uz)
8. [http:// www.oyina.uz](http://www.oyina.uz)

A thick, light orange vertical bar is positioned to the left of the title text.

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

“KWHL” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qoʻllaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu boʻyicha qoʻyidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

Know – nimalarni bilaman?

Want – nimani bilishni xohlayman?

How - qanday bilib olsam bo‘ladi?

Learn - nimani o'rganib oldim?.

“KWL” metodi	
- <i>Nimalarni bilaman:</i> -	<i>Nimalarni bilishni xohlayman,</i> <i>nimalarni bilishim kerak:</i>
3. Qanday qilib bilib va topib olaman: -	<i>Nimalarni bilib oldim:</i>

“W1H” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta’rifi, mazmuni, nima uchun ishlatiladi)	
Where?	Qayerda (joylashgan, qayerdan olish mumkin)?	
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to‘ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• кучли томонлари
W – (weakness)	• заиф, кучсиз томонлари
O – (opportunity)	• имкониятлари
T – (threat)	• хавфлар



Keys-stadi” metodi

“**Keys-stadi**” - inglizcha soʻz boʻlib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o’quv topshirig‘ni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o’quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.



Test

Muammoli vaziyat

Tushuncha tahlili (symptom)

Amaliy vazifa

“SCAMPER” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod muammolarni bartaraf etish bo'yicha yangi innovatsion g'oyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan. SCAMPER “tez yugurish” degan ma'noni anglatadi. SCAMPER tushunchasi kengaytmasi (7 ta)ning har biridan 7 qatordan va 3 ustundan iborat jadval yaratish talab etiladi.

SCAMPER



Ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish

SCAMPER savollari	SCAMPER savollari (yangi g'oyani ishlab chiqish)	Ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish
S	Nima bilan almashtirish mumkin?	
C	Nima bilan birlashtirish mumkin?	
A	Nimaga moslashtirish kerak?	
M	Qanday yaxshilash mumkin?	
P	Nimalarni o'zgartirish mumkin? (shakl, tur, belgi, rang va boshqalar)	
E	Yana qanday holda qo'llash mumkin	
R	Nimani qayta tiklash mumkin?	



III. NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MATERIALLARI

III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-MAVZU: TYUTORLIK TIZIMINING TA'LIM MUASSASASIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Reja:

- 1.1. Tyutorlik faoliyatining maqsad va vazifalari.
- 1.2. Tyutorlik faoliyati turlari, tasnifi va hamkorlik bosqichlari (Xalqaro tajriba).
- 1.3. Tyutorlik faoliyatining texnologiyalari, vositalari va eng muhim funksiyalari.

Ma'ruza natijasida tinglovchi:

- ma'ruza yuzasidan yangi tegishli tushuncha, bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi;
- ma'ruza bo'yicha tegishli misollar va masalalar ustida ishlash, o'z munosabatini bildirish, tyutorlik faoliyatini samarali tashkil etish ko'nikmasiga ega bo'ladi;
- o'z javobini asoslash, tanqidiy fikrlash, opponentni eshitish ko'nikma va qobiliyatini shakllantirishga erishiladi;
- Taqdimot orqali tasavvur, mushohada va qiyosiy tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mavzu bo'yicha dars oli b borish metodikasi:

- ✓ Ma'ruzani o'tish jarayonida texnologik xaritada ko'rsatilgan axborot-kommunikativ va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanilishi nazarda tutiladi;
- ✓ Ma'ruza mavzusining dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni haqida tushuncha beriladi;
- ✓ Mavzuga oid milliy va xalqaro normativ hujjatlar bilan tanishtiriladi va tahlil qilinadi;
- ✓ Reja asosida slaydlar yordamida Tyutorlik tizimining ta'lim muassasasidagi o'rni va ahamiyati tushuntiriladi;
- ✓ Qonunchilik hujjatlari o'rganiladi va tahlil qilinadi;
- ✓ Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishdagi dolzarb vazifalar, muammolar va ularning yechimlari tushuntiriladi.
- ✓ Munozarali (nazariy) savollar o'rta tashlanadi va ularga baho beriladi;
- ✓ Zaruriyat tug'ilganda, masala va savollar uyga topshiriq sifatida beriladi;
- ✓ Asosiy tushunchalar, savol-javoblar umumlashtirilib, ma'ruzaga yakun yasaladi.

Tayanch tushunchalar:

➤ **Tyutor** – oliy ta'lim muassasasida talaba-yoshlarni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatni olib boruvchi shaxs. U talaba-yoshlarni ma'naviy va ijtimoiy holatini doimiy ravishda monitoring va tahlil qilib boruvchi,

ta'lim va tarbiya jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda yaqindan yordam ko'rsatuvchi pedagog xodim sanaladi.

➤ Tyutorlik faoliyatining **asosiy maqsadi** – talaba-yoshlarni vatanparvarlik va milliy qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash, shaxsiy-kasbiy rivojlanishiga yaqindan yordam berish hamda talabalarning ta'lim-tarbiya jarayonlariga moslashuvi, darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish va ta'lim muassasasi bilan bog'liq muammolarini bartaraf etishga ko'maklashishdan iborat.

➤ **Davlat ta'lim muassasasi** - davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassasa.

➤ **Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim** ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.

➤ **Islohot** (fr. reforme, lot.-reformare, ing.reform, rus, reforma-yangilanish, yaxshilash, o'zgarish, tuzatish, qayta qurishlar, davlatning muhim ishlaridagi o'zgarishlar. Islohat biror sohada turli ravishda o'tkaziladigan o'zgartirishdir (Yuridik ensiklopediya. T., "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2001-y. 202-bet.).

➤ **Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash** kasb bilimlari va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta'minlaydi.

➤ **Kodeks** (lot. "Sodex" - qonunlar to'plami) – ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini tartibga soluvchi, ustuvor huquq normalarini o'zida mujassamlashtirgan va tizimlashtirilgan huquqiy akt - qonun bo'lib, unda huquq tarmog'ining barcha normalari mantiqan mutanosiblashtiriladi (masalan, fuqarolik kodeksi, oila kodeksi, jinoyat kodeksi va b.).

➤ **Konstitutsiya** - (lotin. conctitutio - o'rnatish, tuzilish) – moddiy ma'noda avvalo inson va fuqaro huquqlari va erkinliklarini e'lon qiluvchi va kafolatlovchi, shuningdek ijtimoiy tuzum, boshqaruv shakli va davlat tuzilishi, hokimiyat markaziy va mahalliy organlarini tashkil etish asoslarini, ularning vakolatlari va o'zaro munosabatlarini, davlat ramzlari va poytaxtini belgilaydigan qonun hujjati, hujjatlar yoki konstitutsiyaviy odatlar majmui.

➤ **Konstitutsiyaviy qonun** – normativ-huquqiy hujjatlar tizimida o'zining yuridik kuchi va ahamiyatiga ko'ra konstitutsiyadan keyin turadigan qonun shakli. Konstitutsiyaviy qonunlar konstitutsiyada ko'rsatilgan masalalar yuzasidan qabul qilinadi.

➤ **Malaka** - shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajasi.

➤ **Nodavlat ta'lim tashkiloti** - davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxs.

➤ **Normativ-huquqiy hujjat tushunchasi**-normativ-huquqiy hujjat qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir.

➤ **Normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasi** –qonunda belgilangan shaklda qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida qonun hujjatlari normalarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat normativ-huquqiy hujjat deb hisoblanadi.

➤ **Tarbiya** - aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

➤ **Ta'lim** - ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

➤ **Ta'lim kampusi** - yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim-tarbiya muhiti.

➤ **Ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi** - ta'lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari hamda o'quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo'yicha davlat nazoratining asosiy shakli.

➤ **Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari** - ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari.

➤ **Farmoyish** vakolatli davlat organlari yoki mansabdor shaxslar tomonidan kechiktirib bo'lmaydigan va tezda bajarilishi lozim bo'lgan masalalar bo'yicha qabul qilinadigan normativ hujjat.

➤ **Farmon** O'zbekiston Respublikasi davlat boshlig'i tomonidan turmushda, hayotda, xalq xo'jaligida, iqtisodiyotda, ta'limda, ishlab chiqarishda va boshqa sohalarda juda katta o'zgarishlarga olib keladigan o'ta muhim masalalarni tartibga solish va mustahkamlash yuzasidan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qabul qilinadigan normativ hujjat.

1.1. TYUTORLIK FAOLIYATINING MAQSAD VA VAZIFALARI.

Hozirgi globallashuv davrida yoshlar ongu shuurida yuzaga kelayotgan o'ziga xos ijtimoiy-ma'naviy, ruhiy o'zgarishlar oliy ta'lim tizimida sohadagi ishlarni zamonaviylik, muhimlik va samaradorlik, ta'sirchanlik nuqtayi nazaridan to'liq qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

O'z navbatida, bugun yoshlarda tarbiyalash lozim bo'lgan fazilatlarini, jumladan, — Vatanga sadoqat, o'zaro mehr oqibat, yuksak mas'uliyat, bag'rikenglik, sog'lom dunyoqarash, kitobxonlik va media madaniyat, shukronalik, huquqiy, siyosiy, AKT savodxonligi, innovatsion fikrlash, vatan taraqqiyotiga daxldorlik, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetini

mustahkamlash borasidagi ishlarda yangicha, zamonaviy, kreativ yondashuvlarni talab qiladi.

Albatta, bunday murakkab vaziyatda ishlash, natijaga erishish uchun eng avvalo, sharoit va yuqori malakali kadrlar kerak.

Yaqin yillargacha oliy ta'lim muassasasida psixolog, tarbiyachi-pedagog, dekan o'rinbosarlari, tyutorlar faoliyati mavjud emas edi yoki jamoatchilik asosida ish olib borardi.

Bugun 3 mingdan ortiq yangi tyutorlik shtatlari joriy etildi. Natijada bu yo'nalishdagi yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektorlarda samarali faoliyat ko'rsatish uchun zarur kuch va salohiyatga ega kadrlar, mutaxassislar paydo bo'ldi.

Bundan tashqari, bugun har bir oliy ta'lim muassasasida alohida psixologlar, talabalar turar joylarida tarbiyachi-pedagoglar, fakultetlarda dekan o'rinbosarlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida jamoat xavfsizligini ta'minlash hamda talabalar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasining samarali tizimini joriy etish maqsadida aksariyat oliy ta'lim muassasasida shartnoma asosida profilaktika inspektorlari lavozimi joriy etildi.

Shuningdek, yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektorlarga birinchi prorektor maqomi berildi.

Bir so'z bilan aytganda sohani boshqarish hamda faoliyatni muvofiqlashtirish uchun katta jamoa shakllantirildi va har bir talaba bilan individual ishlash mexanizmi yaratildi.

Tyutorlik faoliyatining **asosiy maqsadi** – talaba-yoshlarni vatanparvarlik va milliy qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash, shaxsiy-kasbiy rivojlanishiga yaqindan yordam berish hamda talabalarning ta'lim-tarbiya jarayonlariga moslashuvi, darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish va ta'lim muassasasi bilan bog'liq muammolarini bartaraf etishga ko'maklashishdan iborat.

Quyidagilar tyutorlik faoliyatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

talabaning oliy ta'lim muassasasi va o'quv-tarbiya jarayonlariga moslashuviga, hayotda o'z o'rnini topishiga, axborot-resurslari va boshqa manbalardan samarali foydalanishiga ko'maklashish hamda shaxsiy-kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan yakka va guruhiiy maslahatlar berib borish;

ta'lim muassasasining Ichki tartib-qoidalari, Odob-axloq kodeksi, korrupsiyaga qarshi kurashish Dasturi (siyosati) hamda boshqa lokal hujjatlar bilan o'ziga birlashtirilgan talabalarni tanishtirish;

talabalarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishi va zamonaviy shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ko'maklashish;

talabalarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va

oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash;

yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish;

iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida talabalarning ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, turli loyihalar va tanlovlardagi faol ishtirokini ta'minlash;

talabalarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va sport bilan muntazam shug'ullanishini ta'minlash;

psixolog bilan birgalikda ijtimoiy so'rovlar va suhbat o'tkazish hamda tegishli anketalarni to'ldirish orqali har bir talabaning ijtimoiy-psixologik portretini shakllantirish;

ta'lim-tarbiya jarayonlari samaradorligini oshirish maqsadida talabaning fakultet, kafedra, professor-o'qituvchilar va oliy ta'lim muassasasining boshqa xodimlari bilan o'zaro hamkorligini mustahkamlash;

profilaktika inspektori bilan hamkorlikda profilaktik tadbirlar o'tkazib borish;

“Yoshlar balansi” shakllantirishda ishtirok etish, uning tahlilini yuritish;

nogironligi bo'lgan, yetim, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarni moddiy-ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflar kiritish;

talabalarning yashash manzillari (talabalar turar joyi, ijara va xususiy xonadonlar hamda o'z uyi)ga muntazam borib, u yerdagi sharoit va talabalarning ijtimoiy (oilaviy) holatidan xabardor bo'lish, ularning bu boradagi muammolarini o'rganib, uni bartaraf etish bo'yicha rahbariyatga tegishli takliflar kiritish;

talabaning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan o'zaro hamkorlikni tashkil etish hamda ularni farzandining o'quv-tarbiyaviy va ijtimoiy-maishiy sohalardagi faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlardan xabardor qilib borish;

talabaning axloqiy, ma'naviy-ma'rifiy xususiyatlarini va u haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni yorituvchi yig'ma jild shakllantirish hamda unga “Ma'rifat darslari” va ish rejasidagi turli xil tadbirlar va ularda talabalarning ishtirokini qayd qilish;

guruh sardorlarini tanlash va saylash jarayonini tashkil etishda ko'maklashish;

ta'lim muassasasining tegishli bo'limlari bilan hamkorlikda talabalarning o'quv va tarbiyaviy faoliyati natijalari monitoringini yuritish;

iqtidorli va iste'dodli talabalarni aniqlab, ularni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomdor davlat stipendiyalariga yo'naltirish hamda yoshlarga oid Davlat mukofotlariga tavsiya qilishda ishtirok etish;

oliy ta'lim muassasasining ijtimoiy-madaniy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida faol ishtirok etayotgan talabalarni ta'lim muassasasi rahbariyati va jamoat tashkilotlari tomonidan rag'batlantirishga tavsiya etish.

Tyutorlar quyidagi huquqlarga ega:

davomat va o'zlashtirish monitoringini olib borish maqsadida o'ziga biriktirilgan talabalarning darslarini kuzatish;

talabaning talabalar turar joyiga joylashishi va undan chiqarilishi hamda yashash sharoitlarini yaxshilash bo'yicha takliflar kiritish;

talabaga tavsifnoma va akademik ta'til berish masalasini hal etishda ishtirok etish, talaba haqidagi fakultetda mavjud ma'lumotlardan xizmat faoliyati doirasida to'la foydalanish;

Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti, Kasaba uyushmasi va Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi bilan birgalikda talaba bilimini odilona baholashni kuzatish.

Tyutor mehnat shartnomasida ko'rsatilgan ishlar bilan bir qatorda, asosiy ishidan bo'sh vaqtda qonunchilikda belgilangan tartibda o'rindoshlik asosida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin.

Tyutor qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa huquqlarga ham ega bo'ladi.

Tyutorlar quyidagi majburiyatlarni bajaradilar:

murabbiylik mahorati, kasbiy tayyorgarligi, nazariy bilim va ish tajribasini doimiy ravishda oshirib borish;

talabalarning sha'ni, qadr-qimmati va obro'sini hurmat qilish, ular haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni ularning roziligisiz oshkor qilmaslik;

ta'lim muassasasida professor-o'qituvchilar va boshqa mas'ul xodimlar tomonidan talabaning obro'-e'tibori va nufuziga dog' tushirishning oldini olish;

o'ziga biriktirilgan talabalar bilan muntazam (guruhlarda va yakka tartibda) suhbatlar o'tkazib borish;

talabalar va ularning ota-onasini yoki boshqa qonuniy vakillarini oliy ta'lim muassasasi nizomi, Ichki tartib-qoidolari, Odob-axloq kodeksi, TTJdan foydalanish qoidolari va ta'lim faoliyatini tartibga soluvchi boshqa hujjatlar bilan tanishtirish hamda bu borada ota-onalar bilan yaqindan hamkorlik qilish;

talabalar bilan bog'liq favqulodda muammoli vaziyatlar yuzasidan zudlik bilan fakultet dekani va boshqa mas'ullarga axborot berish.

1.2. TYUTORLIK FAOLIYATI TURLARI, TASNIFI VA HAMKORLIK BOSQICHLARI (Xalqaro tajriba).

Tyutorlik yordami bu o'quvchining ta'lim motivlari va manfaatlarini aniqlash hamda rivojlantirish, individual o'quv dasturini yaratish uchun ta'lim resurslarini izlash, oiladan ta'lim buyurtmasi bilan ishlash, talabaning ta'lim, tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirishga qaratilgan ta'limni individuallashtirish bo'yicha pedagogik faoliyat hisoblanadi.

Individual yondashuv dasturlarda belgilangan o'quv faoliyati darajasi va talabani ularni o'zlashtirishi real imkoniyatlari o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish vositasi sifatida tushuniladi. Ta'limni individuallashtirish individual yondashuvdan ajralib turishi kerak. Individual yondashuv dasturlarda belgilangan o'quv faoliyati darajasi va talaba ularni o'zlashtirishning real imkoniyatlari o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish vositasi sifatida tushuniladi.

Ta'limning har bir bosqichida, ya'ni maqsadni idrok etishda, o'rganishni rag'batlantirish, ta'lim muammolarini hal qilish, harakat usullarini aniqlash va h.k. Shu jarayonda talabalarning xususiyatlari hisobga olinadi, ammo bunda ta'lim mazmuni oldindan belgilanadi.

Ta'limni individuallashtirish tamoyili o'quvchilarning o'z ta'lim mazmunini, o'z ta'lim dasturini qurish huquqiga ega ekanligini anglatadi. Individual yondashuv mantig'ida o'qituvchining faoliyati qoida tariqasida talqin etilishi mumkin, keyinchalik u o'quvchining individual xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan ta'limdagi "to'siqlarni" qoplash vositasi sifatida ko'riladi.

Individuallashtirish tamoyilini amalga oshirish orqali o'qituvchi o'quvchi talabani individual ta'lim dasturini yaratish va amalga oshirish jarayoniga hamroh bo'ladi, o'z e'tiborini o'rganishning mazmunlilikiga qaratadi, talabalarga ta'lim shakllarini sinab ko'rish, loyihalash va qayta qurish imkoniyatini beradi. Talabalarning o'z taqdirini o'zlari belgilash, o'quv jarayonini "yuzaga chiqarish" imkonini beradi. Tyutor, bizning fikrimizcha, talabalar hayotida shunday vaziyatlarni qurishi kerakki, bunda ularning tarbiyaviy maqsadlari va motivlarini ularning haqiqiy harakatlari orqali ko'rsatish mumkin bo'ladi.

Tyutorning vazifasi talabalarning kognitiv tashabbuslari va qiziqishlarini namoyon qilishi uchun makon sifatida ta'lim maydonini yaratib berishdan iboratdir. Bu umumiy ta'limning istalgan darajalariga taalluqlidir, garchi tyutorlik vositalari yosh xususiyatlariga va o'qituvchi rivojlanishining ijtimoiy holatiga mos ravishda o'zgarishi kerakligi aniq.

Bugungi kunda tyutorlik harakati tarkibiga kirgan katta pedagogik hamjamiyat a'zolarini barpo etayotgan va ularni ko'paytirishga intilayotgan tyutor texnologiyalari aynan individuallashtirish g'oyasini amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, har qanday ta'lim shaxsini, talabalarning xususiyatlari hisobga olmasdan turib samarali bo'lmasligini inobatga oladi.

Rossiya, Germaniya va Birlashgan Arab amirliklaridagi tyutor o'qitish modellarining umumiy tavsiflari quyidagilardan iborat:

Tyutor talabani individuallashtirish jarayoniga qaratilgan bo'lib, uning maqsadi sifatida shaxsning o'zini o'zi belgilashini ko'zda tutadi.

Jarayon sifatida, bu individual maslahatchi, o'qituvchi talabaga o'z faoliyatining dasturi sifatida individual ta'lim trayektoriyasini rivojlantirishga yordam beradi, uni amalga oshirish jarayoniga hamroh bo'ladi.

Asosiy usul sifatida suqrotcha usul qo'llaniladi.

Yevropa va Yaqin Sharq mamlakatlarida tyutor professional murabbiy, malakali mutaxassis emas.

Yevropa va Yaqin Sharqda ochiq ta'lim maydoni va talabalar uchun tanlash erkinligi mavjud.

Dunyoning hech bir davlatida tyutorlik tizimi ishini nazorat qilish uchun normativ-huquqiy baza mavjud emas; bu endigina Rossiyada shakllantirilmoqda.

Tyutor ishining asosiy shakli – individual maslahatchidir.

Germaniya va Birlashgan Arab amirliklari universitetlarida tyutorlik ham kunduzgi, ham masofaviy ta'limga joriy qilingan.

Tyutorning bajaradigan umumiy vazifasi talabani o'qishga jalb etish, ya'ni talaba bilan birgalikda uning individual ta'lim trayektoriyasi (yo'nalishi)ni tuzish va uni amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Tyutorlik hamkorligi – bu talabaning ta'lim motivlari va qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirishga, individual ta'lim dasturini yaratish uchun ta'lim resurslarini izlashga, oilaning ta'lim tartibi bilan ishlashga, shaxsni shakllantirishga qaratilgan ta'limni individuallashtirish bo'yicha pedagogik faoliyat. Tyutorning barcha savollari, birinchi navbatda, ushbu ta'lim maydonini ochiq joyga aylantirishdan oldin har bir talabaning mavjud ta'lim maydonini “kengaytirish”ga qaratiladi.

2011-yilning 16-dekabrida Barnaul (Rossiya)da Mintaqalararo tyutorlik assotsiatsiyasining seminari bo'lib o'tdi, unda o'z-o'zini tashkil etishda shaxsiy o'sish bosqichidan kelib chiqqan holda tyutorlik faoliyati tyutorlikni qo'llab-quvvatlash natijalarini shaxsning o'z o'zini tashkillashtirishdagi o'sishi tarzida quyidagicha davrlashtirish mumkinligi haqidagi g'oya ilgari surildi:

Birinchi bosqich – maqsadlarning namoyon bo'lishi, anglanishi va unga intilish, asosiy vazifa esa tarbiyalanuvchi o'z harakatlari yo'nalishini belgilab olishi kerak. Natija shuki, tyutor o'z maqsadini mustaqil ravishda aniqlay olishga qodir, uni qabul qilgunga qadar shu maqsadga diqqatini qaratadi.

Ikkinchi bosqich – tyutorant o'z maqsadiga erishish uchun kerakli narsalarni qidiradi, tanlaydi, baholaydi.

Uchinchi bosqich – umumiy ishda hamkorlik. Bu yerda tyutor shogirdiga mustaqil ishtirokchiga aylanishi, boshqalarning maqsadlarini tushunishi, bir-birlarining resurslaridan umumiy maqsadda foydalanish qobiliyatini, ya'ni birgalikdagi faoliyatda sherik bo'lishni baholashga yordam beradi.

To'rtinchi bosqich – umumiy imkoniyatlarni yaxshilash uchun qo'shma tadbirlarni tashkil etish. Bu yerda tyutor o'qituvchiga “kelajakqa qarash” va hozirgi paytda faol harakat qilishni o'rganishga yordam beradi.

Shunday qilib, bir tomondan, o'qituvchi navigator sifatida o'qituvchiga o'z o'zini tashkil etish va shaxsiy o'sishning qaysi bosqichida ekanligini tushunishga yordam beradi hamda o'z rivojlanishiga subyektiv pozitsiyani egallash, o'quv jarayonida o'zini subyekt sifatida rivojlantirish mexanizmlarini o'zlashtirishga yordam beradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, tyutorni qo'llab-quvvatlash bir-biriga bog'liq bo'lgan tashxislash, loyihalash, amalga oshirish, tahliliy bosqichlar shaklida namoyon bo'ladi. Ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega hamda o'qituvchi va talaba uchun ishlashning muayyan usullarini taklif qiladi.

1.3. Tyutorlik faoliyatining texnologiyalari, vositalari va eng muhim funksiyalari.

Tyutor an'anaviy o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi vositachidir. U talabaning manfaatlarini va muammolarini tahlil qiladi, dasturda qiyinchilik bilan berilganligini, qobiliyatlarga ega ekanligini kuzatadi. Tyutor talabaga bilimlarni rivojlantirishning individual yo'nalishini izlab topadi. Tyutor unga ta'lim manfaatlarini shakllantirishga yordam beradi va oxir-oqibat unga o'ziga mos kasbini tanlashga yordam beradi. Tyutor – bu talabani yangi faoliyatni o'zlashtirish jarayonida kuzatib boradigan va uning individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish hamda amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni tashkil etib beradigan murabbiy. Ba'zi hollarda o'quvchilar bilan birga tyutorning mavjudligi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tyutorning vazifasi bu makonni ochiq joyga aylantirishdan oldin har bir talabaning mavjud ta'lim makonini kengaytirishdir. Ochiq va yopiq ta'lim makonlari amaliy pedagogik harakatni tashkil etish miqyosida ham, falsafiy antropologiya miqyosida ham tubdan farq qiladi. Yopiq ta'lim maydoni – bu o'qituvchiga ma'lum bo'lgan bir makon, unda talabaga rahbarlik qilishi kerak. Yopiq ta'lim maydonining ideali bu o'qituvchi va uning muassasasi, o'ziga xos o'qitish usullarining borligidir. Ochiq ta'lim maydoni o'quvchiga ta'lim tarzi va usulini tanlash imkoniyatini beradi. Ochiq ta'lim maydonining ideali ko'plab turli muassasalar talabalaridir. Ochiq ta'lim maydoni ma'lum bir imijni shakllantirmaydi, balki odamlarga o'z taqdirini o'zi belgilash tajribasini berishga qaratilgan. Yopiq va ochiq ta'lim joylari ham bir-biridan farq qiladi, chunki yopiq ta'lim maydonlarida talaba uchun makonning o'zi ifodalanmaydi, chunki hamma narsa uning trayektoriyalari oldindan belgilangan va oldindan harakatlari tasdiqlab qo'yilgan bo'ladi.

Tyutor talabalar uchun individual va guruhli mustaqil mashg'ulotlarni tashkil qiladi, Ma'rifat darslarini tashkil etadi, o'quv mashg'ulotlarni nazoratini oladi, unda u talabalar bilan ularning ta'limdagi muvaffaqiyatlari va qiyinchiliklari, turli joylarda va turli xil faoliyat turlarida o'tkazilgan testlarning samaradorligini, sinov harakatidan samaraliga o'tishini tahlil qiladi. Tyutor talabaning o'quv faoliyatini va professor-o'qituvchilar tomonidan o'quv samaradorligini baholashini nazorat qiladi, shuningdek, talaba bilan o'quv jarayonining boshqa subyektlari bo'yicha fikr almashinishini tashkil qiladi.

Turli maslahat berish shakllarida tyutorga o'zining ta'lim harakati haqida fikr yuritishga yordam beradi, keyingi ta'lim bo'yicha, ya'ni fanlarni o'zlashtirishda maslahatlar beradi. Shunday ekan, bugungi kunda eng asosiysi professor-o'qituvchilarning yangi kasbiy rolini shakllantirish, ularning tyutorlarni qo'llab-quvvatlash texnologiyalarini o'zlashtirishlarida va ushbu texnologiyalarni ta'lim muassasalari amaliyotiga joriy etishlarida ko'maklashish juda muhim vazifalardan bo'lib qoladi.

Tyutorlik faoliyatidagi eng muhim funksiyalar

1. Bilimlarni o'zlashtirish ta'minlash funksiyasi. Tyutorning pedagogik yordami o'quv materialini tushunish va o'zlashtirishni, ya'ni yangi bilimlarni

egallashni ta'minlaydi. Tyutor kontent bilan ishlashning eng yaxshi usullarini ko'rsatib, yangi ko'nikmalar va xatti-harakatlar modeli (qolipi)ning ishlab chiqilishini rag'batlantiradi. Bundan tashqari, tyutor talabalarga yangi bilimlarni o'zlashtirish haqiqati va u bilan bog'liq shaxsiy o'zgarishlarni anglab mulohaza yuritishga undaydi.

2. Tashkiliy funksiya. Talaba va ta'lim muassasasi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni muvofiqlashtirish. U o'qiyotganda o'quv faoliyati me'yorlarini joriy etish, talabalarning tyutor va bir-biri bilan o'zaro munosabatlarini tashkil etish, o'zaro ta'limni tashkil etish, mashg'ulotlar ketma-ketligi va vaqtini boshqarish.

3. Kommunikativ funksiya. Talabalarning tyutor bilan va o'zaro muloqotini amalga oshirish; guruh dinamikasini boshqarish, guruhdagi pozitsiyalar va rollarini taqsimlash; individual (yakka) va guruh ishlari uchun vazifalarni belgilash, ularning har birini kommunikativ almashinuvga jalb qilish.

4. Motivatsion funksiya. Talabalarning shaxsiy motivlari va ehtiyojlarini aniqlash; o'qish bilan bog'liq shaxsiy istiqbollarni tushunib yetishga yordam berish; fanlarni o'zlashtirish va muloqot jarayonida psixologik qulaylikni yaratish; samarali harakatlarning ijobiy mustahkamlanishiga erishish.

5. Monitoring va nazorat. Talabalarning individual qiyinchiliklari va cheklovlarini aniqlash, ularni bartaraf etishga yordam berish; talabalar faoliyatini bosqichma-bosqich monitoring qilish, o'quv jarayonidagi o'zgarishlar dinamikasini aniqlash; talabaning fanni o'zlashtirishini va fandan tegishli baho to'plamaganlarning oldini olishga javoban o'qitishning turli bosqichlarida mulohaza qilishni ta'minlash. O'qish oxirida bilim va ko'nikmalarni nazorat qilish hamda baholash.

MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN MASALALAR:

1-masala

Oliygozlarda tarbiya klasteri asosida ustoz-shogird an'analarini rivojlantirish, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimi samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlarini o'z faoliyat sohangizdan kelib chiqqan holda tizimli tahlil qiling?

№	Oliygozlarda tarbiya klasteri asosida ustoz-shogird an'analarini rivojlantirish, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimi nimalardan iborat?	Mavjud muammolar?	Muammolarni bartaraf etish mexanizmi?
1.			
2.			

2-masala

Oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyatidagi eng muhim funktsiyalarini amalga oshirishdagi muammolar va ularning yechimlarini tahlil qiling?

№	Tyutorlik faoliyatidagi eng muhim funksiyalar	Mavjud muammolar?	Muammolarni bartaraf etish mexanizmi?
1.			
2.			

Nazorat savollari:

1. Tyutorlik faoliyatining maqsad va vazifalari nimalardan iborat ?
2. Tyutorlik faoliyatini tashkil etish bo'yicha qanday xorijiy tajribani bilasiz?
3. Tyutorlik faoliyatining texnologiyalari, vositalari va eng muhim funksiyalari nimalardan iborat?
4. Tyutorlarning huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?
5. Oliy ta'lim muassasalarida qaysi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tyutorlik faoliyatini tashkil etilgan?

2-MAVZU: TALABALAR ORASIDA G‘OYAVIY IMMUNITETNI OSHIRISH USULLARI

Reja:

1.1. Talaba-yoshlarning mafkuraviy immunitetini va g‘oyaviy bardoshlilikini mustahkamlash.

1.2. Talaba-yoshlarning ongiga qaratilgan axborot xurujlarining oldini olish, ularda ma’lumotlar, internet va boshqa axborot resurslaridan o‘rinli foydalanish madaniyatini shakllantirish.

1.3. Oliy ta’lim muassasalaridagi talabalarning mutolaa madaniyati va kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish.

Ma’ruza natijasida tinglovchi:

- ma’ruza yuzasidan yangi tegishli tushuncha, bilim, ko‘nikma va tajribaga ega bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladi;
- ma’ruza bo‘yicha tegishli misollar va masalalar ustida ishlash, o‘z munosabatini bildirish, talaba-yoshlarning mafkuraviy immunitetini va g‘oyaviy bardoshlilikini mustahkamlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi;
- o‘z javobini asoslash, tanqidiy fikrlash, opponentni eshitish ko‘nikma va qobiliyatini shakllantirishga erishiladi;
- Taqdimot orqali tasavvur, mushohada va qiyosiy tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Mavzu bo‘yicha dars oli b borish metodikasi:

- ✓ Ma’ruzani o‘tish jarayonida texnologik xaritada ko‘rsatilgan axborot-kommunikativ va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanilishi nazarda tutiladi;
- ✓ Ma’ruza mavzusining dolzarbligi, o‘rganilganlik darajasi, bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni haqida tushuncha beriladi;
- ✓ Mavzuga oid milliy va xalqaro normativ hujjatlar bilan tanishtiriladi va tahlil qilinadi;
- ✓ Reja asosida slaydlar yordamida Tyutorlik tizimining ta’lim muassasasidagi o‘rni va ahamiyati tushuntiriladi;
- ✓ Qonunchilik hujjatlari o‘rganiladi va tahlil qilinadi;
- ✓ Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishdagi dolzarb vazifalar, muammolar va ularning yechimlari tushuntiriladi.
- ✓ Munozarali (nazariy) savollar o‘rtaga tashlanadi va ularga baho beriladi;
- ✓ Zaruriyat tug‘ilganda, masala va savollar uyga topshiriq sifatida beriladi;
- ✓ Asosiy tushunchalar, savol-javoblar umumlashtirilib, ma’ruzaga yakun yasaladi.

Tayanch tushunchalar:

➤ **Mafkuraviy profilaktika** – ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan turli shakllardagi g‘oyaviy-tarbiyaviy, ma’naviy-mafkuraviy ishlar

majmui bo'lib, u butun g'oyaviy tarbiya tizimini qamrab oladi. Ma'furaviy profilaktika g'oyaviy bo'shliqni tugatish, ma'furaviy parokandalikni oldini olish yoki biror-bir hudud, qatlam, guruhni yot va zararli g'oyalar ta'siridan xalos qilish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda g'oyaviy ta'sirning xilma-xil usul va yo'llaridan foydalaniladi, turli vositalar qo'llaniladi.

➤ **G'oyaviy tahdidlar** – inson ongini soxta, be'mani va nisbiy bo'lgan g'oyalar bilan to'ldirishga qaratiladi. G'oyaviy tahdidlar atayin, maqsadli ravishda amalga oshirilishi bilan xavfli hisoblanadi. Bugungi kunda yurtimizda ma'naviy va axloqiy tubanlik manbai bo'lgan “ommaviy madaniyat” elementlari bo'lmish egoizm, axloqiy buzuvchilik, zo'ravonlik, me'yorida ortiq darajadagi individualizm, mutaassibona e'tiqodlik kabi g'oyaviy tahdidlarni chetdan turib tiqishtirish urinishlari ko'zga tashlanmoqda. G'oyaviy tahdidlar shaxsni, millatni va milliy madaniyatning o'ziga xosligini izdan chiqaruvchi xatardir.

➤ **Ommaviy madaniyat** – bu keng auditoriyaga mo'ljallangan va turli ommaviy kommunikatsiya vositalari orqali tarqaladigan madaniy va ijtimoiy fenomenadir. Ommaviy madaniyatning eng asosiy xususiyati – u keng ommaga tarqalishi, turli ijtimoiy guruhlar, millatlar va yoshlarni birlashtirishi va ularga o'z ta'sirini ko'rsatishidir. Televideniye, kino, musiqa, internet va reklama kabi kommunikatsiya vositalari orqali ommaviy madaniyat odamlarning dunyoqarashi, qadriyatlari, urf-odatlarini va ijtimoiy xulq-atvorlarini shakllantiradi. “Ommaviy madaniyat” yoshlarning madaniy ongining to'g'ri shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ularni xudbin va xudkush qilib voyaga yetkazadi.

➤ **Mutolaa** [arabcha diqqat bilan o'qish, o'rganish] Diqqat bilan o'qish, o'qib tushunib olish. (*Otabek jiddiy ravishda Fuzuliy mutolaasiga berildi.* (Abdulla Qodiriy)).

➤ **KITOB** [arabcha yozilgan, muqovalangan asar] **1** Ma'lum matnli varaqlardan iborat, juzlab an, muqovalangan, hajmi 48 sahifadan kam bo'lmagan bosma (qadim qo'lyozma ham) asar. **2** Umuman, ma'lum shaxs, voqea-hodisaga oid tugal, odatda nashr etishga (kitob bo'lishga) mo'ljallangan asar.

2.1. Talaba-yoshlarning mafkuraviy immunitetini va g'oyaviy bardoshlilikini mustahkamlash.

KIRISH

Globallashuv sharoitida dunyo miqyosida kechayotgan mafkuraviy kurashlar, turli g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlar har bir insondan ogohlik va sergaklikni talab etadi. Mamlakatimiz manfaatlari, milliy an'ana hamda qadriyatlarimizga yot bo'lgan g'oya va mafkuralar bevosita yoshlar ongi va qalbiga qaratilganligi bilan yanada xavflidir.

Mana shunday sharoitlarda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanib, mafkuraviy immunitetni yoshlar ongida shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Talabalarda mafkuraviy immunitetni va g'oyaviy bardoshlilikini oshirish yuzasidan amalga oshiriladigan ishlarning sifati va tezkorligi esa, milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishda ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarning mafkuraviy immuniteti, g'oyaviy bardoshlilikini oshirishda kommunikatsion texnologiyalardan, shu jumladan: ommaviy axborot vositalari, radio, televideniye kanallari orqali aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida izchil targ'ibot ishlarini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, global g'oyaviy va mafkuraviy o'zgarishlarni tub mohiyatini anglash va idrok etish, unga keng jamoatchilikning aql-zakovati, mohiyatini to'g'ri yo'naltirish mazkur vazifani amalga oshirishning muhim sharti bo'lib xizmat qiladi.

Talabalar mafkuraviy immuniteti va g'oyaviy bardoshlilikini oshirish yuzasidan tayyorlangan mazkur ishda bir qator uslubiy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Milliy g'oyaning innovatsion targ'ibot texnologiyalari yoshlarni turli xurujlardan himoya qilishning zamonaviy usullariga oid ijodiy fikr-mulohazalarni targ'ibot-tashviqot ishlariga, ilm-fanga, o'quv jarayoniga va amaliyotga tatbiq etish mazkur sohadagi ishlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan talabalar mafkuraviy immuniteti va g'oyaviy bardoshlilikini oshirish bo'yicha tayyorlangan mazkur uslubiy tavsiyalar soha mutaxassislariga yaqindan yordam berdi.

MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH

Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda yutuqlardan foydalanish kerakmi yoki bizga to'siq bo'layotgan, vatan ravnaqi, xalq farovonligiga xalaqit berayotgan muammolardan ham foydalanish mumkinmi?

Mafkuraviy immunitet nafaqat ijobiy, balki salbiy faktlar, nafaqat yutuqlar, balki muammolarni tushuntirish orqali ham shakllantiriladi. Chunki aholi, ayniqsa yoshlarni mustaqil O'zbekiston erishgan yutuqlaridan iftixor qanchalik birlashtirsa, Vatanimiz oldida turgan muammolar, ularni yechish zaruratini har xil anglash, bilish ham shuncha birlashtiradi. Tajribali maslahatchilar, targ'ibotchilar, pedagoglar buyuk kelajakni qurish – birdaniga bo'lib qolmaydi, bunda muammo, qiyinchiliklar uchrashi ham qonuniyligini, chunki ularning hal qilinishi - rivojlanish manbai ekanligini tushuntiradilar. Bunda yanada tezroq rivojlanishimizga olg'a qarab borish hal qilinmagan muammolarni ko'rsatib beradilar. Bu bilan har bir fuqaroning millat, Vatan, Buyuk kelajagimiz oldidagi shaxsiy mas'uliyatini paydo qiladilar.

Buzg'unchi mafkuralar qanday usullardan foydalanishadi?

Targ'ibotning g'oyat makkor usullaridan. Ya'ni:

- ongni ishg'ol qilish;
- qo'rquv tuyg'usini uyg'otish;
- ko'pminglik mitinglar uyushtirish;
- katta va'dalar berib, keskin gapirish;
- katta yolg'ondan tezkor dezinformatsiya uchun foydalanish;
- yangi auditoriya bilan samimiylik va xolislikka va'dalar berib aloqa o'rnatish;
- "Hamdard" sifatida "tor davrlar uchun" yolg'on tarqatish;
- chet el razvedkasiga yolg'on ma'lumotlar berish;
- o'z xalqini aldash;
- o'zlari o'ynayotgan rolning asl mohiyatini bilmaydigan agentlardan foydalanish;
- dezinformatsiya manbaini niqoblash ("Qora radiostansiyalar");
- raqib tomonining radioto'lqinlariga chiqish;
- varaqalar tarqatish;
- ko'cha-ko'ydagi "beg'araz" muloqotlarda afsona va mish-mishlar tarqatish (Eshitdingizmi?, qabilida);
- yolg'on bashoratlarni tarqatish;
- raqib tomonni qo'rquvga soluvchi xabarlar tarqatish;
- yolg'on ma'lumotni rost ma'lumot bilan birga berib, ishonarli qilish;
- voqealar, hodisalar analogiyasini qo'llash;
- folbinlik, bashoratchilik;
- faktlarni o'zgacha, yolg'on mazmun berib talqin qilish;
- yasalgan, to'qilgan "fakt"lar orqali o'zini oqlab, raqibini qoralash;
- "faktlar"ni muttasil takrorlab turish;
- blef - to'qilgan faktlar bilan qo'rqitish;
- "breaking the news" - biror yaxshi yoki yomon hodisa oldidan ma'lumot tarqatish;

- yolgʻon raddiyalar ishlatish;
- qalbaki hujjatlarni “oʻgʻirlatish”;
- qalbaki iqtiboslar;
- manbaga qalbaki yondashish va h.k.

“Mafkuraviy profilaktika” iborasi nimani anglatadi?

Mafkuraviy profilaktika – ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan turli shakllardagi gʻoyaviy-tarbiyaviy, maʼnaviy-mafkuraviy ishlar majmui boʻlib, u butun gʻoyaviy tarbiya tizimini qamrab oladi. Mafkuraviy profilaktika gʻoyaviy boʻshliqni tugatish, mafkuraviy parokandalikni oldini olish yoki biror-bir hudud, qatlam, guruhni yot va zararli gʻoyalar taʼsiridan xalos qilish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda gʻoyaviy taʼsirning xilma-xil usul va yoʻllaridan foydalaniladi, turli vositalar qoʻllaniladi.

Mafkuraviy profilaktikaning qanday xususiyatlari bor?

Mafkuraviy profilaktika tezkor va qisqa surʼatlarda yoki asta-sekin, bochqichma-bosqich amalga oshirilishi mumkin. Birinchi holatda zudlik bilan chora-tadbirlar qoʻllash lozim boʻlsa, ikkinchi holda doimiy va sobitqadamlik bilan ish olib borish koʻproq natija beradi.

Shuningdek, Vatan, xalq manfaatlarini, doʻstlik va birodarlikni, oʻzaro hurmat va bagʻrikenglikni targʻib-tashviq etuvchi ertaklaru dostonlar, qoʻshiqlaru raqslar, turli koʻrinish va mazmundagi maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar mafkuraviy profilaktikani amalga oshirish shakllaridir.

1. Talaba-yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda madaniy-maʼrifiy tadbirlar rejasini, ssenariysini talaba-yoshlarning qiziqishlarni oʻrgangan holda **psixolog-mutaxassislarni jalb qilgan** holda tuzish va ishlab chiqish boʻyicha talaba-yoshlarga maʼnaviy taʼsir koʻrsatuvchi turli vositalar mavjud. Bular orasida koʻzga tashlanmaydiganlari xavfli hisoblanadi.

Ruhiyatga taʼsir qilish omillari:

- tovush bilan taʼsir koʻrsatish;
- nutq bilan taʼsir koʻrsatish;
- maʼlumotni soxtalashtirish;
- chalgʻitish;
- ongni reja asosida shakllantirish;
- shovqin-suron bilan taʼsir koʻrsatish;
- tokli taʼsir koʻrsatish;
- elektromagnit bilan taʼsir koʻrsatish;
- infratovushlar bilan ishlov berish;
- psixotrop moddalar qoʻllash;
- fiziologik taʼsir koʻrsatish (parhez, ozdirish, semirtirish, ichkilikbozlikka) oʻrgatish;

- bioenergiya bilan taʼsir koʻrsatish (gipnoz va h.k)

Bulardan maqsad:

- itoat qildirish;
- zaiflashtirish;
- xoli qilish;
- egallash.

Koʻzlanadigan natijalar:

- xulq-atvorni buzish;
- asab kasaliga duchor qilish;
- ruhiy xastalikka olib kelish;
- ruhiyatni aynitish;
- shaxs maqsadini chalg'itish;
- shaxsni mutaassiblashtirish;

Ruhiyatga salbiy ta'sir qilish vazifasini turli narsalar bajarishi mumkin. Misol uchun, televizor turli ranglar vositasida shaxs ongini chalg'itishi mumkin. Shu ma'noda televizor nafaqat manipulyatsiya, balki ruhiyatni izdan chiqaruvchi vosita ham hisoblanadi.

2. O'tkaziladigan tadbirlarning mazmuni keng qamrovli bo'lib, eng asosiysi ko'zlangan maqsadga xizmat qilishi kerak. Avvalo, insonlar tomonidan yaratilgan **ma'naviy boyliklar, ilg'or g'oyalar va ta'limotlarni, ta'lim-tarbiya, din, huquq, axloq, san'atning roli samarali natija beradi. Bular quyidagilar va milliy g'oya** quyidagi yo'nalishlarga ega bo'ladi:

- jamiyatda yagona maqsad va muddaoning bo'lishi (ijtimoiy guruhlar o'rtasida konfliktning yo'qligi);
- jamiyatning farovon istiqbolga egaligi;
- mavjud jamiyatning barqarorligi;
- o'z manfaatlarini himoya qilishning samara berishi;
- ichki va tashqi mafkuraviy dushmanlarga qarshi kurashda uyushuvchanlikning mavjudligi;
- yetakchilarning iqtidorliligi va haqgo'yligi;
- yaxshilik tomonga bo'ladigan o'zgarishlarning asosga ega ekanligi;
- vatanparvarlikni xorijparastlikdan ustun qo'yish.

Yuzaki va asossiz targ'ibot odamlarni bezdiradi, mafkurani obro'sizlantiradi. Unutmaslik lozimki, faqat bir qism odamlargina Vatanni o'zgalarga ibrat bo'larli darajada seva oladi va targ'ibot ishlarini mana shunday odamlar olib borishlari lozim.

3. Ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba-yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishning tizimli o'quv yili yili ish rejasini OTM, fakultet, TTJ va akadem guruhlar axborot soatlarida tanishtirib o'tishni ishlab chiqish. Ushbu tizimda o'quvchi-yoshlarni milliy g'oya, xalqimizning boy tarixiy va madaniy merosi bilan tanishtirish, milliy an'analarga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, diniy bag'rikenglik, jaholatga qarshi ma'rifat, internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish va foydalanish va istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash.

Bu ma'naviy-ma'rifiy ishlar dasturlarida ko'zda tutilgan, loyihalashtirilgan natijani kafolatlashga qaratilgan turli operatsiyalar, vositalar, metodlar zanjiri sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli ushbu tizim asosini vositalar emas, balki u yoki bu fazilatni shakllantirishda kafolatlangan natijaga erishishning algoritmlari rejalashtiriladi.

Tadbirning stixiyali tarzda, sun'iy, majburiy va o'ta rasmiy xarakterda bo'lishi ham uning samarasiz, natijadorligi juda ham past bo'lishiga olib keladi. Shu ma'noda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning algortmini tuzib olish maqsadga muvofiq.

Tadbirning natijadorligi va samaradorligi nimaga qarab belgilanadi?

Har qanday tadbirdan koʻzlangan maqsad boʻladi. Ana shu maqsadga erishilgan yoki erishilmagani uning natijadorlik darajasini belgilab beradi. Agar tadbirdan soʻng muayyan muddat davomida maqsadga erishilsa, demak, tadbir oʻz samarasini bergan hisoblanadi. Aks holda esa tadbirga sarflangan mablagʻ, uning tashkilotchilari va ishtirokchilarining qimmatli vaqti havoga sovurilgan boʻlib, ayrim hollarda maqsadga zid boʻlgan salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi ham hech gapmas. Shuning uchun har qanday tadbirni oʻtkazishda tadbir samaradorligini taʼminlashga xizmat qiladigan vositalarga qatʼiy rioya qilish talab etiladi.

Tadbir samaradorligining mezonlari nimalardan iborat?

Tadbir samaradorligining mezonlari

	Samaradorlik koʻrsatkichlari	Samaradorlik shartlari	Baho
	Tadbir mavzusining dolzarbligi	Tadbirning nega, nima uchun aynan shu mavzuda, shu vaqtda, shu qatnashchilar tarkibi bilan oʻtkazilishining asoslanganligi	
	Mavzu nomi	Sodda, qiziqarli, dolzarb, qatnashchilarning yoshi, kasbi, manfaatlariga, xududiy xususiyatga mos maʼnaviy-mafkuraviy muammolardan birini hal etishga qaratilgan boʻlishi	
	Maqsadning ifodalanishi	Tadbirning maqsadi, qatnashchilar bilib olishi zarur boʻlgan asosiy fikrlarning tezis shaklida aniq yozilganligi.	
	Tayyorgarlik koʻrish muddati	Tadbir mavzusi va mundarijasi haqida kamida bir hafta oldin barcha qatnashchilarga eʼlon qilinishi; tashkilotchilar bir hafta oldin tayyorgarlik koʻrishgani; zarur audio, vizual, koʻrgazmali vositalar tayyorligi	
	Tadbir ssenariysi	Tadbir ssenariysining bir oy oldin tuzilib, masʼullar bilan kelishilganligi. Ssenariyda soʻzga chiquvchilar, savol-javoblar uchun vaqtning anik taqsimlanganligi	
	Tadbirning qiziqarliligi	Qatnashchilarni toliqtirmaslik, ularning diqqatini doimiy jalb qilib, faollashtirib turilishi, tarixiy, milliy, zamonaviy fakt, misollar, rakamlardan foydalanish	
	Auditoriya	Tashkilotchilar Bilan qatnashchilar orasida muloqot, oʻzaro murojaat uchun qulay, samimiy muhit taʼminlanganligi. Qatnashchilarning tadbir mavzu-mundarijasini bilib, tayyorlanib kelishi.	
	Koʻrgazmali vositalar	Xar bir mavzu buyicha kamida uchta koʻrgazmali vositadan foydalanilishi	
	Erishilgan natija	3-bandda belgilangan tezislarni savollarga	

		aylantirib so‘ralganligi. Qatnashchilarning shu tadbirda olgan yangi bilimlarini qachon, kanday vaziyatlarda qo‘llashni aytib bera olishi; natijaning bilib olgan tinglovchilarning %, ulardan olingan to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblar sonidan kelib chiqib baholanganligi. Faol katnashchilarning ragbatlantirilishi.	
	Hujjatlash-tirish	Tadbirning bayonida: maqsad, tezislar, berilgan savol, olingan javoblar, yutuq va kamchiliklar, xulosa, tavsiyalar yozilib, imzolanib, saqlanishi.	

*Ballar yig‘indisi o‘rganilgan tadbir samaradorligining miqdorini ko‘rsatadi.

G‘oyaviy tarbiyadan maqsad nima?

Biz bolalarimizni milliy o‘zlik bilan qurollantirishimiz, ya’ni, g‘oyaviy tarbiyani kuchaytirishimiz lozim.

G‘oyaviy tarbiyaning vazifalari mahalla, oilalarda bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib:

- milliy g‘oyalarimizni anglashni shakllantirish;
- bunyodkor g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- vayronkor g‘oyalarni bilish va ularga qarshi “Jaholatga qarshi ma’rifat”

tamoyili asosida munosabat bildirishga o‘rgatishdan iborat.

Milliy g‘oya nima?

Milliy g‘oya har qaysi millatning:

ajdodlaridan avlodlariga o‘tib kelayotgan;

asrlar davomida e‘zozlab kelinayotgan;

o‘zini shu yurt, shu millat vakiliman deb bilgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otgan;

har bir insonning ma’naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan eng ezgu orzu-intilish va umid-maqсадlari ekan.

Milliy g‘oyani targ‘ib qilishda qaysi tamoyillardan foydalanish kerak?

Targ‘ibot milliy g‘oya va milliy mafkura mazmun-mohiyatiga mos bo‘lgan taqdirdagina kutilgan natijaga erishish mumkin. Jumladan, milliy mafkurani targ‘ib qilishda ishtirok etuvchi barcha bo‘g‘inlarda:

1. Uzluksizlik;
2. Bosqichma-bosqichlik;
3. Faollik;
4. Mafkurani e‘tiqodga aylantirish;
5. Ish bilan so‘z birligi;
6. Shaxsiy ibrat;
7. Hayotiylik (yutuqlar bilan birga kamchiliklarni ham ko‘rsatish)”

tamoyillariga amal qilish maqsadga muvofiq.

15. Yetarli bilim, malaka, xayotiy tajribaga ega bo‘lmagan, o‘z tarixi, ajdodlarining kimligidan bexabar, soddadil, ishonuvchan yoshlarning bugungi kunda buzg‘unchi g‘oyalar tuzog‘iga tushib qolayotganini alohida ta’kidlab, dunyoning ayrim hududlarida ana shunday harakatlar natijasida katta ma’naviy yo‘qotishlar, milliy ong, shuningdek diniy qadriyatlarning hamda turmush tarzini tushuntirish.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirish uslublari

Bu usulning asosiy vazifasi aholi dunyoqarashini kengaytirish, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning mafkuraviy kurashchanligini oshirishdir. U fuqaroga faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, ularni O'zbekistonning Buyuk kelajagini qurishda, demokratik jamiyat va o'z-o'zini boshqaruvni rivojlantirishda, iqtisodiy islohotlarni jadallashtirishda, madaniy va ma'naviy islohotlar jarayoniga jalb qilishda muhim rol o'ynaydi.

Uslubning samaradorligi fukarolarning qarashlarida, hatti-harakatlarida milliy g'oya va milliy mafkuraning namoyon bo'lishida, boshqalarni o'z ortidan ergashtira olishida va ijtimoiy ijodkorligida ko'rinadi.

Aholining bilim darajalari anketa va muloqotda aniqlanadi. Asosiy ish uslubi – diskussiya, bahs-munozara, ochiq muloqot, har xil nuqtai-nazarlarni qiyosiy muhokama qilish va javobni milliy manfaatlardan kelib chiqib topishdir.

Mashg'ulotlarning shakllari – disputlar, “g'oyalar bahsi”, savol-javob kechalari, “davra stoli”, uchrashuvlar, siyosiy turnirlar, viktorinalar, “matbuot konferentsiyalari” va h.k. Shu bilan birga ular radio va televideniyaedagi dolzarb mavzulardagi ko'rsatuv va eshittirishlar, maqolalar, ijtimoiy va yoshlar mafkurasi muammolarini keng doirada amaliy tahlil qiladilar. Siyosatshunoslar, psixolog, faxriylar, pedagog, faylasuf, tadbirkorlar, tarixchi mutaxassislar, jurnalistlarning tashriflari uni qiziqarli qiladi. Mashg'ulotlarda mafkuraviy hayotning dolzarb muammolari tahlil qilinadi. Har bir mavzuni atroflicha, uning dialektik muammolari, qirralari va qarama-qarshi tomonlari o'rganiladi.

Musiqa ham mafkuraviy qurol bo'lishi mumkinmi?

Albatta, 70 yillardan boshlab, tashqi mafkuraviy targ'ibot mutaxassislari yoshlarning musiqiy, bilim ehtiyojlaridan o'z manfaatlari yo'lida foydalanish uchun maxsus dasturlarini yarata boshladilar. “Musiqa”, “Yoshlar - sizlar uchun!” musiqiy dasturi va boshqalar o'sib kelayotgan yosh avlodlarga qarshi qaratilgan mafkuraviy ko'poruvchilikning birinchi omillariga aylandi. Bu haqda radiostansiyalar yo'riqnomalarida aniq-tiniq qilib: “Muvaffaqiyatli tuzilgan musiqali dastur tinglovchilarda sening yurtingda emas, boshqa mamlakatlarda shodlik va farovonlik mo'l degan fikrni tug'dirib, o'zgalarning hayotiga mahliyo qiluvchi ta'sirchan vositadir” deyilgan.¹

Yot mafkuralar xizmatiga yollangan ommaviy axborot vositalarining o'z oldiga qo'ygan boshqa muhim va yashirin maqsadi bu - yangi modadagi musiqiy dasturlar orqali katta va kichik avlodlar dasturlarining mos kelmasligini ta'kidlab o'tish va yoshlarni mehnatdan chalg'itib, faqat ko'ngil ochishga, lazzatlanishga yo'naltirishdir. O'zbekiston xalqining madaniyati, ma'naviyati, g'oyasi, estetik, ahloqiy, ma'naviy, g'oyaviy qadriyatlariga sekin asta putur yetkazish, yoshlarda keksa avlodlarga salbiy munosabat paydo qilishga harakat qilishni vazifa qilib qo'ymoqdalar. Bu borada sezdirmasdan harakat qilib, yoshlarda biz shakllantirilayotgan mafkuraviy immunitetni - to'siqni olib tashlashga harakat qilishmoqda.

¹ King R. Minorities under sistem. Cambr. (Mass), 1973, p.16

G‘oyaviy tahdidlar haqida qisqacha ma’lumot bera olasizmi?

G‘oyaviy tahdidlar inson ongini soxta, be‘mani va nisbiy bo‘lgan g‘oyalar bilan to‘ldirishga qaratiladi. G‘oyaviy tahdidlar atayin, maqsadli ravishda amalga oshirilishi bilan xavfli hisoblanadi. Bugungi kunda yurtimizda ma‘naviy va axloqiy tubanlik manbai bo‘lgan “ommaviy madaniyat” elementlari bo‘lmish egoizm, axloqiy buzqlik, zo‘ravonlik, me‘yoridan ortiq darajadagi individualizm, mutaassibona e‘tiqodlik kabi g‘oyaviy tahdidlarni chetdan turib tiqishtirish urinishlari ko‘zga tashlanmoqda. G‘oyaviy tahdidlar shaxsni, millatni va milliy madaniyatning o‘ziga xosligini izdan chiqaruvchi xatardir.

Yot g‘oyalarga qarshi kurash

Yot g‘oyalar aslida kimningdir g‘oyasi. Balki qaysidir xalqning milliy g‘oyasi ham bo‘lishi mumkin. Ular uchun milliy va o‘z manfaatlarini ifodalaydigan g‘oya biz uchun begona hisoblanadi. Shu bilan birga bizning milliy g‘oyamiz bilan qarama-qarshi ma‘noga ham ega bo‘lishi mumkin. Chunki ayrim g‘oyalar o‘zgalar tomonidan o‘z manfaati yo‘lida o‘ylab topilib, ma‘lum bir maqsadlarda muayyan mamlakatlarga yoyiladi. Eksport qilingan g‘oyalar esa g‘oya egasi bo‘lgan mamlakatga foyda keltiradi, farovon hayot sari olib boradi. Uni import qilgan mamlakatni tanazzul sari olib boradi. Albatta bunday g‘oyalar niqoblangan holda eksportga chiqariladi. **Natijada quyidagi holatlarni yuzaga keltiradi:**

Avvalo, o‘zligini yo‘qotishga harakat qilinadi.

Ikkinchidan, millat taqdiriga befarqlik.

Uchinchidan, odamlarni bir-biriga gij-gijlash.

To‘rtinchidan, demokratiya niqobi ostida yoshlarni yo‘ldan urish.

Beshinchidan, “ommaviy madaniyatni” targ‘ib qilish.

Oltinchidan, davlatga ishonchsizlikni oshirish.

Shularning barchasiga erishilsa, g‘oyaviy kurashda eksport qilingan g‘oya g‘olib chiqadi. G‘oyasini eksport qilgan mamlakat zafar qozonadi. Import qiluvchi davlat esa o‘zi bilmagan holda g‘oyaviy kurashda mag‘lubiyatga uchrab, eksportchi davlatga g‘oyaviy jihatdan qaram bo‘ladi. Ma‘naviyati tubanlikka sari qulay boshlaydi. O‘zligini yo‘qotadi. Moliyaviy va iqtisodiy jihatdan inqirozga yuz tutadi. Bularning hammasi g‘olib mamlakatga foyda keltiradi. Bu g‘oyaviy tajovuz ham deyiladi

Qanday g‘oyalar yot g‘oyalar deyiladi?

“Qaysi g‘oya insoniy bo‘lsa, odamlarga foydasi tegsa, o‘sha g‘oya jamiyatga kerak”.

Demak, **yot g‘oyalar bu:** *bizga mutlaqo begona,*

- *egotsentrizm, axloqsizlik falsafasini ilgari suruvchi;*
- *qadriyatlarga bepisandlik bilan qarashni o‘rgatuvchi;*
- *vatansizlikni targ‘ib qiluvchi;*
- *ekstremistik g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi;*
- *yoshlarni to‘g‘ri yo‘ldan ozdiruvchi g‘oyalardir.*

Yot g‘oyalar g‘oyaviy tahdidlar natijasi o‘laroq o‘zga yurtlarga kirib boradi.

G‘oyaviy tahdid qilish maqsadida o‘zgalar tomonidan o‘ylab topiladi.

Yot g'oyalarga qarshi kurashish uchun nimalarga e'tibor berish lozim?

Yot g'oyalarga qarshi kurashish uchun amalga oshirishimiz lozim bo'lgan asosiy ishlar quyidagilardan iborat bo'lmog'i lozim:

- Mamlakatda nimaiki yaxshi va xosiyatli narsalar bor – barini mustahkamlash va yanada boyitish;
- Ko'zga ko'ringan, faol, boshqaruvga layoqatli, iqtidorli yoshlarning boshqa yovuz guruhlar saflariga qo'shilib ketishining oldini olish, ularni ona yurtimiz va xalqimiz farovonligiga xizmat qiladigan qarorlar qabul qilishga undash;
- Biron-bir rahbarning nufuziga putur yetkazmaslik, ularni to'g'ri yo'lga chorlash va kerak paytda jamoat oldida qo'llab-quvvatlash, islohotlar yutuqlarini keng targ'ib qilish;
- Yovuz maqsadlar yo'lidagi eng qabih va razil odamlardan uzoq bo'lish, ularning g'oyasi va maqsadini puchga chiqarish hamda yoshlarni ana shunday kimsalardan asrash;
- Mamlakat fuqarolari orasida nizo va janjal chiqishining oldini olish, doimo ahil-inoq va hamfikir bo'lish;
- Yoshlarning katta avlod bilan o'zaro munosabatlarini mustahkamlash va har bir yoshni kattalarga hurmat ruhida tarbiyalash;
- Hukumat ishiga imkoniyat darajasida har bir daqiqada yordam berish va yot g'oyalarga, ta'sirlarga berilmaslik;
- Armiyamizning me'yorida ta'minlanishiga va ular orasida tartib-intizom bo'lishiga hamma usullarda ko'maklashish;
- Milliy san'at namunalarining keng yoyilishi va yuksak qadrlanishiga, gullab-yashnashiga har tomonlama hissa qo'shish;
- Turli tumtaroq chiqish (rep, step, chechetka, rok-n-roll, sheyk va vist kabi chetdan kirib kelayotgan milliy xususiyatlarimizga yot bo'lgan kuy, raqs, qo'shiqlar)ning keng avj olishiga yo'l qo'ymaslik;
- Xalqimizning azaliy milliy urf-odat va an'analarini avaylab-asrash, uning qadrini oshirish va yoshlarni mustaqil fikrli, qat'iy e'tiqodli qilib tarbiyalash uchun hamma imkoniyatlarni ishga solish;
- Rivojlanish va taraqqiyotni qiyomiga yetkazish uchun iste'dodli, bilimli, iqtidorli va yuksak ma'naviyatli yoshlarni, fuqarolarni safarbar etish;
- Yolg'on-yashiq va'dalarga uchmaslik, har qanday vaziyatda axborot xavfsizligini ta'minlash va boshqa shu kabilar.

Yot g'oyalarning oldini olish va ularga qarshi kurashishda nimalarga tayangan ma'qul?

- g'oyaviy tarbiya;
- milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirish;
- yot g'oyalarni tanib olish, zararini bilish va ulardan ogoh bo'lish;
- globallashuv davrining turli g'oyaviy tahdidlaridan ogoh bo'lish;
- targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish;
- ta'lim-tarbiya tizimi;
- ma'naviyatni yuksaltirish;
- tarixni o'rganish;
- milliy o'zlikni anglash;

- bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasini o‘rganib borish;
- xalq og‘zaki ijodi va badiiy asarlarni o‘qish;
- diniy-ma‘rifiy bilimlar, jumladan, islom haqiqatini anglash;
- ajdodlardan qolgan ilmiy-ijodiy merosdan o‘git va o‘rnak olish;
- milliy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish.

Yoshlar yot g‘oyalarga ergashib ketmasligi uchun nimalar qilishlari lozim?

1. Milliy mafkuraning har bir g‘oyasini amalga oshirish;
2. Mukammal ta‘lim-tarbiyaga intilish;
3. Milliy urf-odat va an‘analarga sodiq bo‘lish;
4. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e‘zozlash;
5. Milliy axloq qoidalariga doimiy amal qilish;
6. Muntazam sport bilan shug‘ullanish;
7. Milliy hunarmandchilikni o‘rganish, hunar egallash;
8. Ezgulikka chorlovchi kitoblarni o‘qish;
9. Milliy o‘yinlar o‘ynash;
10. Intellektual o‘yinlar o‘ynash;
11. Madaniy-ma‘rifiy to‘garaklarga qatnashish;
12. Turli ko‘rik-tanlov va festivallarda qatnashish;
13. Ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarda faol ishtirok etish;
14. Ajdodlarning tarixiy, adabiy-badiiy merosini o‘rganish;
15. Bilimlarga asoslanib, mustaqil fikrli va qat‘iy e‘tiqodli bo‘lish;
16. Mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga qaratilgan ko‘rsatuv, eshittirish va tadbirlardan xabardor bo‘lib turish.

G‘oyaviy targ‘ibot ishini tashkil qilish

Mamlakatda olib borilayotgan g‘oyaviy targ‘ibotning natijadorligi soha mutaxassislari bilan bir qatorda maslahatchilar zimmasiga ham muayyan mas‘uliyatlar yuklaydi. Ular:

Birinchidan, maslahatchi milliy mafkuramizni vujudga keltirgan asosiy manbalardan xabardor bo‘lishi darkor. Ular qadriyatlar, milliy meros ekanini chuqur anglasin.

Ikkinchidan, milliy g‘oyamizni qalban his etsin, milliy mafkuramiz mazmun-mohiyatini chuqur idrok etsin.

Uchinchidan, g‘oyaviy targ‘ibot ishlarini tashkil etar ekan, bunda o‘zi mas‘ul mahalla ahlining barcha xususiyatlari: yoshi, psixologik xususiyatlari, kasbi, millati, diniy e‘tiqodi, idrok etish imkoniyatlari, bilim darajasini hisobga olsin.

To‘rtinchidan, targ‘ibotning zamonaviy va sermahsul usullaridan xabardor bo‘lsin. Zero, busiz muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi.

Beshinchidan, u kim bilan qanday muomala qilish madaniyatini o‘zlashtirsin, bir so‘z bilan aytganda, balog‘at ilmidan boxabar bo‘lsin. Chunki, o‘z vaqtida to‘g‘ri yo‘naltirilgan fikrgina natijador bo‘ladi.

Oltinchidan, maslahatchi eng buyuk orzuimiz bo‘lgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish mahallaning har bir kishisiga bog‘liq ekanini fuqarolarga singdirdin, ularning bu masaladagi ishonchini e‘tiqodga aylantirishga erishsin.

Yettinchidan, g'oyaviy targ'ibot ishiga ijodiy yondoshsin. Mavzular mobaynida shu mahalla hayoti bilan bog'liq hayotiy misollar, buyuk ajdodlarimiz, xususan, mana shu hududda abadiy qo'nim topgan ulug' zotlar merosidan olingan dalillar ayniqsa ijobiy samara beradi. Shu o'rinda yurtimizda erishilayotgan yutuqlar, keng qamrovli islohotlar samarasi aks etgan materiallarning ham berilishi maqsadga muvofiq.

Sakkizinchidan, yurtimizda istiqomat qilayotgan har bir xalqning yozma va og'zaki ijodi namunalari, ko'pmingyillik tarixiy merosiga murojaat qilsin, shu orqali milliy istiqlol g'oyasining negizlarini tushuntirsin; odamlarda, ayniqsa, yoshlarda millat qahramonlari, buyuk ajdodlar hayotidagi qahramonlik, millatparvarlik, vatanga sadoqat, oilaparvarlik, ilmga chanqoqlik kabi ko'pdan-ko'p daqiq jihatlardan o'rnak olish, ularga taqlid qilishga ehtiyoj uyg'otsin.

To'qqizinchidan, fuqarolarni erkin taqfakkurga, mushohadaga, yon-atrofdan sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni teran anglash, ulardan kerakli xulosalar chiqarishga o'rgatsin. Bunda shaxsiy ibrat alohida o'rin tutadi.

O'ninchidan, doimo o'z ustida ishlasin. Ilmini oshirib borsin. Uning benazir tafakkur tarzi boshqalarni ham shunga rag'batlantiradi.

O'n birinchidan, mahalla ahlini dolzarb mavzular bo'yicha bahsu munozaralarga chorlash orqali ularni ong'li ravishda to'g'ri yo'nalishga solishga erishsin. Ixtiyoriy amalga oshirilgan ishlar bardavom bo'ladi.

O'n ikkinchidan, mahalladoshlarining mustaqillik xalqimizning azaliy orzusi, Alloh bizga in'om etgan buyuk ne'mat ekanini yurakdan his etishlariga, ularda bugunimiz, kelajagimizga mustahkam e'tiqod darajasidagi ishonch hosil bo'lishiga erishsin. Bu o'rinda unga "Mahalla" xayriya jamoat fondi, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi, Toshkent islom universiteti kabi mutasaddi idoralar tomonidan taqdim etilgan ilmiy, ilmiy-ommabop nashrlar, mediataqdimotlar amaliy ko'makchi vazifasini o'tashi darkor.

O'n uchinchidan, maslahatchi loqayd bo'lmasin. Loqaydlik barcha illatlar boshi ekanini aslo unutmasin. Uning o'rniga fidoiy, tashabbuskor bo'lsin. Shu orqali ayrim fuqarolardagi boqimandalik kayfiyatiga barham berish mumkin.

O'n to'rtinchidan, maslahatchi targ'ibot ishlarini xo'jako'rsinga qilmasin. U faoliyat olib borayotgan hududda targ'ibot ishlari sifatli olib borilishiga erishsin, ularning tasodifiy, mavsumiy bo'lishiga yo'l qo'ymas. Chunki, targ'ibot ishlari, xuddi savob ishlaridek, har kuni har kim tomonidan qilinishi shart.

O'n beshinchidan, XXI asr – axborot asri. Shunday ekan, targ'ibot faoliyatida ommaviy axborot vositalari, xususan, internet, televideniye va radio orqali uzatiladigan, gazeta va jurnallarda yoritiladigan tahliliy materiallardan unumli, o'rinli foydalansin.

G'oyaviy tarbiyaning vazifalari nimalardan iborat?

G'oyaviy tarbiyaning vazifalari mahalla, oilalarda bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib:

- milliy g'oyalarni anglashni shakllantirish;
- bunyodkor g'oyalarni qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini shakllantirish;
- vayronkor g'oyalarni bilish va ularga qarshi "Jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyili asosida munosabat bildirishga o'rgatish;

Milliy mafkuramiz haqida yoshiga mos tushunchalarni shakllantirish lozim.

16. Milliy g'oyalar tarixiy tarakqiyot zaruriyati natijasida shakllanadi. Daholar millat e'tiqodiga asrlar davomida singib kelgan g'oyalarga tayanib, ularni rivojlantirish orqali xalq ommasiga raxnamolik qilishi, ularga sayqal berib, yangilarini yaratib, ko'zlanilgan maqsadlar amalga oshishiga ta'siri, orqali milliy g'oya uzluksiz jarayon sifatida cheksiz takomillashishi, davrlar o'zgarib, siyosat, mafkura yangilanib turishi, milliy g'oya, o'z mohiyatiga ko'ra, etnik birliklar taraqqiyotining mo'tadil omili ekanligini talabalarga yetkazish.

17. Milliy g'oyaning ta'sir samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi mezonlarning hisobga olinishi muhim:

- Yoshlarning siyosiy bilimdonligi va jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirish;
- Jamiyat ma'naviy sog'lomlashtirishda bevosita yoshlarning faolligini oshirish;
- Jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlarining yil sayin kamayib borishida yoshlarning tashabbuskorligini oshirish;
- Giyohvandlilik va turli hil kasalliklarning oldini olishda yoshlarning ishtiroki;
- Yoshlarning mas'uliyatli, e'tiqodli, iymonli bo'lishlarida ustozlarning o'rnak bo'lishlariga erishish.

Milliy g'oyaning bosh maqsadi ham odamlarni umumiy maqsadlar yo'lida birlashtirishdan iborat ekanligini talabalar ongiga singdirish.

18. Jamiyat hayoti uchun bo'lgan xavf xatar, avvalambor, nomutanosiblik, jamiyat tizimida ichki aloqalarning buzilishi bilan bog'liqligi, xavfsizlik deganda ichki birlikni, ushbu jamiyat yaxlitligini qayta tiklash, jamiyat o'zining obyektiv ehtiyojlariga mosmaqsadlarni ishlab chiqish, layoqatini va ularga erishish imkoniyatlarini saqlash, avvalo, axborot jamiyatidagi (jumladan, uning zamonaviy O'zbekistondagi o'ziga xos xususiyatlarini) "xavflilik" va "xavfsizlik" fenomenlarini hisobga olmasdan turib, ilmiy tahlil qilishning iloji yo'q. Axborot faoliyati to'g'risidagi mavjud ma'lumotlarni sintez qilish xarakterini shakllantirish.

19. Globallashuv jarayoni axborotlar oqimini ham tezlashtirib, ham kengaytirib yubormoqda. Shunday ekan milliy qadriyatlarimizga yot bo'lgan, yovuz va tuban niyatlar, g'arazli maqsadlar yashiringan axborot xurujlariga qarshi milliy matbuotimiz ta'sirchan qurol bo'lishi uchun sobit so'z, qat'iy pozitsiya, shaklan va mazmunan uyg'unlikka ega ekanligini talabalarga yetkazish.

20. Ta'lim-tarbiya barcha zamonlarda barcha millat va xalqlarni o'zaro yaqinlashtiruvchi, birlashtiruvchi omil ekanligini va insoniyat ongida dunyoni bilish, uni yana va yana kashf etish, bu orqali esa "o'z"ligini anglashga intilish hissini shakllantirish.

21. Ma'naviy tahdidlar oldingidek ochiqdan-ochiq tazyiqlar asosida emas, balki, turli insonparvar mafkuralar ko'rinishidagi niqoblar va balandparvoz shiorlar ostida, asta-sekinlik bilan sezdirmasdan sodir etilayapti. Shunday ekan, bugungi globallashuvning milliy ma'naviyatga o'tkazayotgan salbiy ta'sirlarini tahlil qilishda ma'naviy tahdid va tajovuzkor faoliyatlarning manbalarini aniqlash maqsadga muvofiq. Hozirgi paytda insoniyatga va mamlakatimiz xalqlariga katta xavf solayotgan neofashizm, neokommunizm, etnotsentrizm, gegemonizm, shovinizm, ma'naviy buzg'unchilik, kosmopolitizm, zo'ravonlik, ma'naviy-madaniy ekspansiya

g'oyalarini tarqatishga qarshi kurashish va ularning mohiyatini to'g'ri anglash masalalari yoritib beriladi.

“Ommaviy madaniyat” hodisasi G'arb olamida XIX asr o'rtalarida paydo bo'ldi. Bu hodisa milliy madaniyatga zid o'laroq ayrim shaxslar tomonidan o'ylab topilgan g'oyalar, udumlar va odatlar majmuini qamrab oladi. Ma'lumki, “ommaviy madaniyat” asosini ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlari tashkil qiladi. Masalan, bizning milliy madaniyatimizda hayo, andisha, ibo kabi yozilmagan, ammo qat'iy amal qilinadigan qonuniyatlar bor. Lekin, “ommaviy madaniyat” jamoat joylarida yigit-qizning bemalol o'pishib turishini tabiiy hol deb qabul qiladi.

“Ommaviy madaniyat” asta-sekin insonga xos bo'lmagan xususiyatlarini kuchaytirib boradi:

1. Axloqiy buzuvchilik. Jamoat joylarida o'pishish, shahvoniy filmlar ko'rish kabi illatlar paydo bo'lmoqda.

2. Zo'ravonlik. Zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi filmlar, kompyuter o'yinlariga odatlanib qolish.

3. Individualizm. “O'zim bo'lsam bo'ldi, o'zga bilan nima ishim bor” degan “prinsip”ning tarkib topishi.

4. Egotsentrizm. Barcha narsaga shaxsiy manfaat nuqtayi nazardan yondoshish va h.k.

“Ommaviy madaniyat” yoshlarning madaniy ongining to'g'ri shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ularni xudbin va xudkush qilib voyaga yetkazadi. Shu ma'noda „ayrim yosh ijrochi va ijodiy guruhlarining jamoatchilik e'tiboriga taqdim etayotgan „asar”lari san'atning hech qanday talab va mezonlariga javob bermaydi. Nafaqat mavzu, musiqa va ijro usullari, balki sahna harakatlarida ham ochiqdan-ochiq ajnabiy „ommaviy madaniyat” ko'rinishlariga taqlid qilish, „yulduzlik” kasaliga chalinish holatlari tez-tez uchrayotgan chinakam san'at muxlislarini ranjitmasdan qolmaydi” (Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – b.142). Bunday salbiy holatlar yoshlar madaniy ongining noto'g'ri shakllanishiga olib keladi.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, „bizning milliy mutlaqo to'g'ri kelmaydigan kliplar, turli tillardagi so'zlarni qorishtirib yoki talaffuzni ataylab buzib aytish kabi nomunosib harakatlarni ayrim yosh ijrochilar o'zi uchun qandaydir yangicha uslub deb bilayotgani san'atni, uning mohiyati va ahamiyatini tushunmaslikdan boshqa narsa emas” (Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – b. 142).

„Ommaviy madaniyat” shaxs madaniy ongini noto'g'ri shakllantiradi, milliy madaniyatni buzadi, umuminsoniy madaniy qadriyatlarni shubha ostida qoldiradi.

Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch asarida ta'kidlanganidek, „Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda” . Bu haqiqatni zinhor unutib bo'lmaydi.

Ruhiyatga ta'sir qilish omillari:

- tovush bilan ta'sir ko'rsatish;
- nutq bilan ta'sir ko'rsatish;
- ma'lumotni soxtalashtirish;
- chalg'itish;
- ongni reja asosida shakllantirish;

- shovqin-suron bilan ta'sir ko'rsatish;
- tokli ta'sir ko'rsatish;
- elektromagnit bilan ta'sir ko'rsatish;
- infratovushlar bilan ishlov berish;
- psixotrop moddalar qo'llash;
- fiziologik ta'sir ko'rsatish (parhez, ozdirish, semirtirish, ichkilikbozlikka)

o'rgatish;

- bioenergiya bilan ta'sir ko'rsatish (gipnoz va h.k)

Bulardan maqsad:

- itoat qildirish;
- zaiflashtirish;
- xoli qilish;
- egallash.

Ko'zlanadigan natijalar:

- xulq-atvorni buzish;
- asab kasaliga duchor qilish;
- ruhiy xastalikka olib kelish;
- ruhiyatni aynatish;
- shaxs maqsadini chalg'itish;
- shaxsni mutaassiblashtirish.

Ruhiyatga salbiy ta'sir qilish vazifasini turli narsalar bajarishi mumkin. Misol uchun, televizor turli ranglar vositasida shaxs ongini chalg'itishi mumkin. Shu ma'noda televizor nafaqat manipulyatsiya, balki ruhiyatni izdan chiqaruvchi vositasi ham hisoblanadi.

XULOSA

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, jamiyatning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirishini ko'zda tutib, zamonaviy, insonparvar bozor munosabatlariga asoslangan, erkin, demokratik, huquqiy, fuqarolik jamiyati qurishning o'ziga xos yo'li ya'ni ijtimoiy rivojlanish yo'lini tanlab, jamiyatni bosqichma-bosqich isloh qilishni amalga oshira boshladi. Bugungi dunyoda mislsiz ilmiy kashfiyotlar, ulkan texnikaviy imkoniyatlar, universal texnologiyalar, axborot tarqatishning globallasuvi, yani ularning butun kurrai zaminni egallab olish jarayoni shiddat bilan bormoqda.

Masalan, Talabalar mafkuraviy immuniteti va g'oyaviy bardoshlilikini oshirish yuzasidan taklif qilingan uslubiy tavsiyalar talabalarni g'oyaviy tasir o'tkazish imkoniyatlari ham tobora kengayib bormoqda. Aslida mafkuraviy immuniteti va g'oyaviy bardoshlilikini oshirishda talabalarni o'zaro muloqoti uchun, ilm-fan va madaniy boyliklarni o'zlashtirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadigan jarayondir. Lekin axborot globallasuvining salbiy jihatlari borligini ham esdan chiqarmaslimiz kerak. Biron bir hudud yoki mamlakatda paydo bo'layotgan g'oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada odamzod ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan, olis yaqin manbalardan tarqaladigan turli mafkuraviy markazlarning bosimini doimiy ravishda sezib yashamoqda.

Bunday vaziyatda o'z mustaqil fikriga, sobit etiqodiga, mustahkam iroda va dunyoqarashiga ega bo'lmagan odam goh oshkora, goh pinhona ko'rinishda namoyon bo'layotgan mafkuraviy tazyiqlarga bardosh bera olmaydi. Keng miqyosli integratsiya va globallasuv jarayonlari jahon taraqqiyotining hozirgi paytdagi muhim xususiyatlaridan biri ekanligini etirof etgan holda, ularning kuchli mafkuraviy tasir o'tkazish vositasi ekanini ham unutmaslik darkor.

Shunday ekan, ayrim yoshlarimizning internet tarmoqlari orqali berilayotgan har xil yot g'oyalarni xolis axborot manbai sifatida qabul qilayotganlarini ham nazardan qochirmaslik kerak. Yot mafkuralarni ko'r-ko'rona qabul qilishning qulay zamini – bu maishiy qulaylikka ortiqcha intilish, tashqi go'zallikka haddan tashqari berilish, buyumparastlik, boqimandalik va milliy turmush tarzida odatiy hol bo'lib qolgan afzalliklar va ne'matlardan ongsiz ravishda foydalanish, ularni ma'naviy qadriyat sifatida to'la anglay bilmaslikdir.

Hozirgi dunyodagi mavjud murakkab mafkuraviy vaziyat yoshlarimizda mafkuraviy immunitetini tarbiyalash ishlarini yanada faollashtirish kerakligini talab qiladi. Hozirgi kunning vazifasi yoshlarimizda kelajagimizga bo'lgan ishonchni, mustaqil, ijodiy fikrlashni shakllantirish, Vatanning taqdiriga mas'ullik hissini yanada yuksaltirish kabilardan iboratdir. Shuningdek, bizga yot bo'lgan odatlar va qarashlarga nisbatan sobit e'tiqodni, immunitetni yaratishdir.

2.2. Talaba-yoshlarning ongiga qaratilgan axborot xurujlarining oldini olish, ularda ma'lumotlar, internet va boshqa axborot resurslaridan o'rinli foydalanish madaniyatini shakllantirish.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarini joriy etishda mavjud gipermatn, gipermedia, videotasvir, grafika, animatsiya, ovoz va boshqa veb dasturlaridan foydalanish katta samara bermoqda. To'plagan tajribalar tahlil qilinganda axborot kommunikatsiya-texnologiyalarining dasturiy vositalari o'qitishda yangi sifat vositalari sifatida o'quv jarayonini jadallashtirish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lib, an'anaviy o'qitish vositalaridan tubdan farqlanib qolmoqda. Ta'lim resurslari asosida o'qitish jarayonida aniq fanlarni kompyuter texnikalar asosida to'liq o'qitish, ma'ruza matnlarini tahrir qilish, o'quvchilarning topshirgan nazorat natijalarining tahlil qilish, o'quvchilarga ta'lim resurslari orqali dars o'tishi, eshitishi va mulohaza qilish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Dunyoda internet tarmog'idan foydalanish keng rivojlanmoqda.

Internetdan foydalanuvchilar soni O'zbekistonda 12 mlndan ziyod. Ayni vaqtda yurtimizda yoshlarimizni turli xil noxolis ma'lumotlardan himoya qilish maqsadida "ZiyoNet" jamoat axborot ta'lim tarmog'i tashkil etilgan. Ular elektron axborot ta'lim resurslari va internet tarmog'i bilan ta'minlangan. Bu esa yoshlarning dunyoqarashini boyitishi, bilim olishi, zamonaviy bilimlar egasi bo'lishi imkonini bermoqda. Xalq ta'limi vazirligi tizimida elektron darsliklar, video va audiodarslar, interaktiv va animatsiyali virtual laboratoriya ishlari, testlar, ta'limiy o'yinlar boshqa qo'shimcha ta'lim resurslari yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining www.eduportal.uz axborot-ta'lim portaliga barcha yaratilgan elektron axborot-ta'lim resurslar joylashtirilgan. Axborot kommunikatsiya-texnologiyalarining rivoji – oddiy aloqadan tortib, to hamkorlikda ish olib borish qurilmalarigacha – sifat jihatdan yangi pog'onaga ko'tarildi. Internet, elektron pochta, mobil telefonlar va kishilarning o'zaro muloqotini ancha tezlashtirdi va osonlashtirdi.

Internet – bu jahon kompyuter tarmoqlari majmuidir. Yanada soddaroq qilib aytadigan bo'lsak, jahondagi kompyuterlararo o'zaro aloqa o'rnatib, turli xil ma'lumotlar almashinishga imkon beruvchi yagona tarmoqdir. Oddiy matn, video, audio resurslar, turli dasturlar va boshqa ma'lumotlar nihoyatda katta hajmda shu tarmoq orqali almashiniladi, uzatiladi va qabul qilinadi. Buyuk ma'rifatparvarimiz Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir"- degan so'zlari bir asr avval millatimiz uchun qanchalik muhim va dolzarblik kasb etgan bo'lsa, hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ma'lumot olish va uni tarqatishda hozirgi kunda internet tarmog'i asosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda. "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasi talablariga ko'ra, qonunga xilof ravishda ijtimoiy ongga axborot vositasida ruhiy ta'sir ko'rsatishga, uni chalg'itishga yo'l qo'yilmaydi. "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasida yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan, hayosizlikni va

shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakat man etilishi belgilab qo'yilgan. "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 16-moddasi talablariga ko'ra, har bir voyaga yetmagan mushtariy ommaviy axborot vositalarida axloqiy va ma'naviy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan axborot olish huquqiga ega.

Internet – imkoniyatlar o‘chog‘i

“Internet” so‘zi ajnabiy tildagi qisqartirilgan jumla bo‘lib, tilimizda “xalqaro ma’lumotlar to‘ri” degan ma’noni anglatadi. Ammo bu nom ixtiyor qilinganidan keyin internetning tinmay rivojlanishi oqibatida u faqat ma’lumotlar taqdim va qabul qilish bilan cheklanib qolmay, bundan ham katta hajmdagi ishlarni olib borishga xizmat qiladigan bo‘lib ketdi. Hayotning barcha sohalarida Internet yordamida osonlik, arzonlik va tezlik foydalari ko‘zlanadigan bo‘ldi.

Tasavvur qilish uchun birgina misol keltirishning o‘zi kifoya qiladi, deb o‘ylaymiz. Havo yo‘li bilan safarga chiqmoqchi bo‘lgan inson oddiygina chipta olish uchun chiptaxonaga borishi, navbatda turib, chipta olishi, agar chipta u istagan kunga topilmasa, ortiga qaytib ketishiga to‘g‘ri keladi. Xuddi shu ish Internet orqali amalga oshirilsa, juda ko‘p foyda ko‘riladi, ya’ni uyda o‘tirib, chipta sotib olinadi. Vaqti kelganda, aeroportda uchishdan oldin avtomatdan elektron chiptasini oladi. Bu ish avvalgisiga solishtirib ko‘rilsa, vaziyat ayon bo‘ladi. Chiptaxonaga borib, ovora bo‘linmaydi. Navbatga turilmaydi. Ustiga-ustak, arzonga tushadi. Chunki chiptaxona binosi, chiptachi, binoni isitish, sovutish, yoritish uchun ketadigan, yo‘lkira va shunga o‘xshash xarajatlar tejab qolinadi.

Bunga o‘xshash foydalar juda ko‘p bo‘lib, biz keltirganimiz oddiy bir misol edi. Shuning uchun hozirda hamma xalqlar Internetni rivojlantirish borasida qo‘lidan kelgan barcha choralarni ko‘rmoqda. Bu ishga to‘g‘anoq bo‘luvchi omillardan xalos bo‘lish yo‘llarini axtarmoqda. Internetdan foydalanuvchilar kun sayin ko‘payib bormoqda. Hamma ushbu osonlik va qulaylikdan bahramand bo‘lishga oshiqmoqda.

Ammo shu bilan birga, internetga bog‘liq muammolar ham ko‘payib va jiddiylashib bormoqda. Barcha sohalaridagi kabi, Internetning foydalari muqobilida zararlari ham ko‘payib bormoqda.

Internetda foydali ma’lumotlar bilan bir qatorda zararli, buzuvchi ma’lumotlar ham tarqalmoqda. Aqiydaga putur yetkazuvchi, fohishabozlik va behayolikni targ‘ib qiluvchi, axloqsizlikni tarqatuvchi va shunga o‘xshash inson zotiga or keltiruvchi ishlarni targ‘ib qiladigan saytlar ko‘payib bormoqda. Ba’zi odamlar internet orqali bir-biriga tuhmat qilmoqda, haqoratlab, so‘kishmoqda, bir-birini sharmanda qilmoqda va hokazo. Aynan Internet orqali nafaqat axloqiy buzuvchiliklar, balki siyosiy, ijtimoiy, moliyaviy, ilmiy va boshqa ko‘pgina sohalarida ham jinoyatlar sodir etilmoqda. Qo‘pol qilib aytganda, Internet mazkur qabohatlarni amalga oshirishni osonlashtirmoqda.

Aytib o‘tilgan ushbu gaplardan ko‘rinib turibdiki, Internet ham ikki taraflama – ham yaxshilikka, ham yomonlikka xizmat qilishi mumkin narsaga aylandi. Bizning vazifamiz uni yaxshilikka xizmat qildirib, yomonlikka boshlamasligi choralarini ko‘rish, uning zararlaridan chetlanishga harakat qilishdir. Buning uchun esa xalqimiz ma’naviyatining umumiy ta’limotlari, milliy qadriyatlarimiz asosida internetdan foydalanish odoblarini yo‘lga qo‘yishimiz kerak bo‘ladi.

Internetdan foydalanish odoblari

Quyida xalqaro zamonaviy aloqa va axborot vositasi bo'lmish Internetdan foydalanishning ba'zi umumiy odoblari haqida qisqacha so'z yuritamiz:

Internetdan foydalanmoqchi bo'lgan odam niyatni yaxshi qilgan bo'lishi kerak.

Albatta, inson har bir narsada bo'lgani kabi, internetdan foydalanishda ham faqat yaxshilikni niyat qilishi lozimdir. Ana shundagina bu ishidan foyda topadi, ko'zlagan maqsadiga erishadi.

Internetga kirishdan oldin vaqtni zoye qilmaslik uchun umrning qadrini esga olish, uning har lahzasi hisobli ekanini esga olish zarur.

Aynan ushbu his-tuyg'u bo'lmagani uchun ko'pchilik Internetda soatlab vaqtini, aziz umrining g'animat kunlarini zoye qilishni o'ziga ep ko'rmoqda. Uzoq vaqt davomida, sakkiz-o'n soatlab Internetda o'tirganlar o'ziga xos xastaliklarga chalinganlari haqidagi xabarlar behuda tarqalmagan bo'lsa kerak.

Internetga kirishdan oldin ish rejasini yaxshilab tuzib olish kerak. Har bir ishdagi kabi, Internetdan foydalanishda ham yaxshilab tuzilgan reja asosida ish yuritish lozim. Maqsad va ko'zlangan foyda aniq bo'lsin. Kirish niyat qilib turilgan saytning nomi tayyor bo'lsin. Shunga o'xshash barcha kerakli narsalar, ma'lumotlarni oldindan aniqlab olish zarur. O'tirib olib, "nima qilsam ekan", degan xayollarni surish vaqtning zavolidir.

Ammo, ming afsuslar bo'lsinki, saytga kiradigan ba'zi odamlar hayotda o'zlariga ravo ko'rmaydigan narsalarni saytda bemalol ep ko'rishadi. Ular o'zlaricha, "bu ish hayotdagi saviyada emas-ku", degan xayolga borishlari mumkin. Aslida esa bu nomaqbul ishlarni saytda o'ziga ravo ko'rganlarning axloqiy saviyasida nuqson bor. Hayotda odamlar uni ko'rib-bilib turgani uchun, o'zgalar gapirmasin deya o'zini yomonlikdan tiygan bo'ladi. Saytda esa odamlar ko'rmaydi ham, bilmaydi ham. Buning ustiga, saytda ismini ham o'zgartirib, tamoman biror kishi tanimaydigan bo'lib oladi.

Odamlar bundan ogoh bo'lsinlar. Demak, fahsh va beodoblikni targ'ib qiluvchi, befoyda mashg'ulotlarga, vaqtni behuda o'tkazadigan narsalarga ixtisoslashgan saytlarga kirmaslik talab etiladi.

Bunga pul to'lab kirish lozim bo'lgan saytlarga haq to'lamasdan, o'g'rincha kirish, ko'chirib olishga ruxsat berilmagan narsalarni ko'chirib olish, ko'chirib olinganda manba ko'rsatilishi lozim bo'lganida, ko'rsatmaslik kabi ishlar kiradi. Bu kabi ishlarning barchasi gunohdir. Chunki bu birovning ma'rifiy-ma'naviy mulkini talon-taroj qilishdan iboratdir. Boshqacha qilib aytganda, ma'rifiy-ma'naviy o'g'rilik va qaroqchilikdir.

Ba'zi kishilar ishxonaning Internetidan o'z shaxsiy manfaatlari uchun foydalanishni o'zlariga ep ko'rishadi. Bunda ikki taraflama mulohaza qilinadigan ish sodir bo'ladi. Bir tarafdan – ishxonaning internetga to'laydigan mablag'i shaxsiy manfaat uchun sarflanadi. Ikkinchi tarafdan – ishxonaning ishini bajarish o'rniga ish vaqtida o'z manfaatini ko'zlab, mas'uliyatdan qochish yuz beradi. Boshqa odamning Internetidan foydalanish borasida ham shunga o'xshash gapni aytish mumkin. Shuning uchun ulardan faqat haq egasining ruxsati bilan va zarurat yuzasidagina foydalanish mumkin. Dam olish tanaffusida kerakli ma'lumotni olish, elektron pochta tekshirib ko'rish kabilarga ruxsat beriladi.

Internetdagi aloqa odoblari

Internetda chat, forum, feysbuk, tvitter kabi o'zaro aloqa olib borishga xizmat qiluvchi vositalar orqali kishilar bir-birlari bilan yozishma, so'zlashma, suratli muloqotlar olib borish imkoniyatlariga ega bo'lishgan. Ular ushbu imkoniyatlarni ishga solib, ko'pgina hojatlarni ro'yobga chiqarish, ma'lumot almashish, bilmaganini so'rab o'rganish, yangi do'st va sheriklar orttirish kabi ko'pgina manfaatlarga ega bo'lishmoqda.

Ammo shu bilan birga, boshqa sohalarida bo'lgani kabi, bu sohada ham o'ziga yarasha muammolar, mushkulotlar va ko'ngilsiz voqealar paydo bo'lmoqda. Masalan, begonalarning bir-birlari bilan ushbu vositalar orqali olib borgan aloqalari natijasi o'laroq, nikohga va'da berish, birovga tuhmat qilish, kimnidir zinoda ayblash, so'kish kabi ishlar kelib chiqmoqda. Shuningdek, er-xotinlarning ushbu vositalar orqali olib borgan aloqalari natijasi o'laroq taloq, bir-birini zinoda ayblash, nasabni inkor qilish kabi o'ta ahamiyatli hukmlar ham sobit bo'lmoqda.

Ushbu vositalar orqali bir necha taraflarning olib borgan muloqotlaridan so'ng bir-birini ommaviy ravishda kofir, fosiq, fojir deya hukm chiqarish, fahsh ishlarga chaqirish, sehr va folbinlikka chorlash, pora va'da qilish, video orqali avratlarni namoyish qilish, shaxsiy, diniy, ijtimoiy holatlarni masxara qilish kabi o'ta jiddiy holatlar ham paydo bo'lmoqda.

Internetdagi ushbu tarmoqlar orqali vaqtini zoye qiluvchi ko'ngilxushliklarga oid narsalar, ovozi va suratli yozuvlar tarqatilmoqda. Turli o'yinlar va musobaqalar, targ'ibot-tashviqot tadbirlari joriy qilinmoqda. Shuningdek, internetdagi ushbu tarmoqlar orqali ilmiy va moliyaviy muomalalar ham keng miqyosda olib borilmoqda.

Afsuski, mazkur aloqalarning barchasida ma'naviyatga xilof bo'lgan, qonunbuzarlik hisoblangan ishlar to'lib-toshib yotibdi. Turli axloqiy, moddiy jinoyatlar sodir etilmoqda.

Bularning hammasini tartibga solish, kishilarni to'g'ri yo'lga solib, noto'g'risidan qaytarish lozim bo'lmoqda. Bu borada hukumatlar, xalqaro tashkilotlar va boshqalar yetarli ishlar olib borishmoqda.

Internet orqali o'zgalalar bilan aloqa qilishda o'ziga tanlagan ismning go'zalligiga e'tibor berish lozim. Internetdagi o'zaro aloqalarda har bir kishi o'ziga ma'lum taxallus qo'yib olishi odat tusiga kirgan. Aslida o'zining asl ismi bo'lgani yaxshi. Lekin turli sabablarga ko'ra, taxallus tanlab olsa ham bo'ladi. Faqat taxallus tanlashda o'zining beodobona gap va ishlariga parda qilish niyati bo'lmasligi shart. Taxallus tanlaganda chiroyli va zavq bag'ishlaydigan ismlarni tanlash kerak.

Internet orqali o'zgalalar bilan aloqa qilishida ham shunday bo'lishi talab etiladi. Ba'zi kishilar muomala holati bir oz o'zgargani tufayli Internetdagi muomalalarga yengil-yelpi qarashadi, bu esa mutlaqo noto'g'ridir.

Hayotimizga diqqat bilan nazar soladigan bo'lsak, kishilarning ko'p vaqti, zehn-zakovati, aql-idroki va imkoniyatlari behuda narsalarga sarf qilinayotganini ko'ramiz. Behuda narsalardan chetda bo'lgan kishi faqat foydali ish bilan mashg'ul bo'layotganini yaxshi anglab yetishimiz lozim. Binobarin, befoyda ishlardan o'zimizni hamisha chetda tutishimiz kerak bo'ladi. Insondan vaqti, kuchi, aqli va zehn-zakovatini faqat foydali narsalarga sarflashi talab etiladi.

Internetdagi o‘zaro aloqalardan juda ko‘p manfaat va foydalar olish mumkin. Chunki ko‘pchilikning ichida turli narsalarni biladigan, tajribasidan o‘tkazgan kishilar bo‘lishi mumkin.

Internet orqali o‘zgalar bilan aloqa qilishda nomahramlar masalasida juda ehtiyot bo‘lish kerak. Bu narsada ehtiyot bo‘linmagani uchun, juda ko‘p muammolar kelib chiqmoqda. Ayrim yigit-qizlarning Internet orqali muloqotda noma’qul aloqalarga o‘tib ketayotganlari kuzatilmoqda. Shuningdek, Internet aloqasidagi tushunmovchiliklar yoki odobdan chekinishlar oqibatida oilali kishilar orasida ajralishgacha yetib borilmoqda. Ushbu satrlar sohibiga ayollardan kelgan maktublarda eri nomahram ayollar bilan Internet orqali topishib, buzilib ketgani haqida shikoyat qilinsa, erkaklardan kelgan yozuvlarda xotinining xuddi shunga o‘xshash ishni qilganda, qo‘lga tushgani bayon etilgan.

Internetdagi imkoniyatlar ko‘payib ketganini ba’zilar suiiste’mol qilishga o‘tishgan, yolg‘on xabarlar, suratlar va videolavhalar tarqatishga odatlanishgan. Bunda o‘z maqsadiga erishish ham, odamlarni mayna qilish ham, yaxshilikka chaqirish niyati ham bo‘lishi mumkin. Ammo nima bo‘lganda ham, buni qilmaslik kerak.

Internet orqali o‘zgalar bilan aloqa qilishda xuddi ko‘z ko‘zga tushib turgandek, o‘zini odob va axloq ila tutish lozim. Bu xildagi aloqa ko‘pchilik bilan bo‘layotganini zinhor unutmaslik kerak. Mazkur aloqa yozishma orqali bo‘lsa, yozuv qoidalariga to‘liq amal qilib, o‘zining yuksak madaniyatini ko‘rsatish kerak. Yozuvlarining bexato ekanini tekshirib ko‘rish lozim. Agar aloqa ovozli yoki suratli bo‘lsa, buning ham rioyasini qilish kerak.

Internet orqali o‘zgalar bilan aloqa qilishda notanish kishilarni “siz”lab, ularga alohida hurmat ko‘rsatish kerak. Voqe’likda ham shunday bo‘ladi. Notanish kishi bilan aloqaga kirishganda, hurmatini joyiga qo‘yib, alohida ahamiyat va e’tibor bilan muomala qilinadi.

Shu bilan birga, Internet qalloblari odamlarni aldash uchun o‘ziga xos “internet-savdolari”ni o‘ylab topishgan. Birgina misol tariqasida quest.net nomli internet bozorini olishimiz mumkin. Sirdan qaraganda, bu narsa odamlarga qulaylik tug‘dirish, savdo molini arzonlashtirish uchun tuzilganga o‘xshaydi. Tarmoqli savdo nomini olgan bu ish aslida qalloblikdan boshqa narsa emas.

Elektron pochta odoblari

Internetda yo‘lga qo‘yilgan xizmatlardan biri elektron pochta. Bu xizmat orqali kishilar asosan bir-birlariga maktublar va turli ma’lumotlar yuborishadi. Ilgaridan bu ma’noda xizmat qilib kelayotgan oddiy pochta bilan elektron pochta orasida juda katta farq borligi hammaga ma’lum. Oddiy pochta orqali biror maktub yoki kitobni yuborsangiz, havo yo‘li orqali eng tez tarzda yetkazishga katta miqdorda pul to‘lasangiz ham ko‘zlagan odamingizga bir necha kunda yetib boradi. Elektron pochta esa uyingizdan chiqmay istalgan hajmdagi maktub yoki kitobni dunyoning eng olis burchagiga ham bir zumda yetkazish mumkin.

Albatta, elektron pochta juda katta qulaylik ne’matidir. Ammo, ming afsuslar bo‘lsinki, ushbu ne’matning qadrini bilmagan ba’zi noshukrlar mazkur elektron pochta foydalanishda suiiste’molga yo‘l qo‘yishyapti. Ba’zilar kishilarni aldab,

katta miqdordagi mablag'ni aytib, "Sizga katta yutuq chiqdi, uni shaxsan o'zingiz kelib, qabul qilib olishingiz kerak. Siz faqat chipta sotib olishingiz uchun pulni bizga yuborsangiz bo'ldi, sizga chiptani o'zimiz jo'natamiz", degan mazmunda maktub yozishadi. Oqibatda aldov yo'li bilan chiptaga ketadigan pulga ega bo'lib olishadi. Yana bir toifa aldoqchilar qayerdandir ayol-qizlarning manzillarini olib, ularga shilqimlik bilan har xil maktublar yozishadi. Bunday nobakorlik tufayli tinch oilalar buzilmoqda, iffatli ayollar tuhmatga qolishmoqda. Uchinchilari esa birovni haqorat qilib, turli bo'htonlar uyushtirishni yo'lga qo'yishadi. Haqiqiy ismlarini yashirib, suvdan quruq chiqishga urinishadi va hokazo.

Albatta, bunday ishlarga chek qo'yish, kishilarni, ayniqsa yoshlarni to'g'ri yo'nalishga yo'llash zarur. Bu sohadagi ishlar esa kishilarni elektron aloqa tizimidan foydalanishda va o'zaro muomalada odobli bo'lishga chaqirish bilan bo'ladi.

Elektron pochta va u orqali muomala qilishni xuddi jonli muloqot kabi his etish kerak.

Elektron pochta orqali qilinadigan muomalaning osonligi, unda o'zining kimligini yashirish qulayligi kishini aldab qo'ymasligi kerak. Kishi ko'z ko'zga tushib turmagan paytda o'ziga turli beodobliklarni ravo ko'rmasligi lozim. Bunga birovlarini aldash va o'zgalar haqqiga xiyonat qilish, yolg'on xabarlar tarqatish, uyatli, fahsh gaplarni yozish, nomahramlarga ruxsat berilmagan narsalarni jo'natish, turli suratlar va lavhalarni tarqatish kabi narsalar kiradi.

Elektron pochta orqali notanish odamlarga turli xabarlarini tarqatish ham odobdan emas. Hozirda elektron pochtni ochsangiz, turli notanish shaxslarning keraksiz maktublari birin-ketin chiqib kelishini ko'rasiz. Bular pochta egasining dilini xira, o'zini ovora qiladi. Ularni o'chirishga vaqt ketadi. Mazkur surbetlardan qutulish uchun turli texnik moslamalar izlashga tushadi. Ular ham istaganidek yordam bera olmaydi. Hatto ba'zi odamlar mahkamalarga (sudga) murojaat qilishgacha bordilar.

Birovning elektron pochtdagi unvonini (manzilini) o'zining ruxsatisiz birovga berish man etiladi.

Unvon bilmasdan uning egasi yoqtirmaydigan yoki unga dushman bo'lgan odamga berib qo'yilishi mumkin. Buning oqibatida turli ko'ngilsizliklar kelib chiqishi ehtimoli kuchayadi. Elektron pochta orqali muomalani yuksak darajadagi odob asosida olib borish talab etiladi. Inson hamma joyda, hamma vaqtda, barcha bilan faqat go'zal muomala qilishga odatlanishi kerak. O'zi bilan muomalada bo'lgan har qanday shaxsda faqat o'ta go'zal taassurot qoldirishi lozim. Bu narsa elektron pochtdagi muomalasida ham barq urib turishi kerak.

XULOSA

Texnologiyani kundalik hayotimizdagi vosita va yoki jarayonlarning ko'p jihatlarni yaxshilash hamda soddalashtirishga qaratilgan qo'llanish asboblari sifatida ta'riflash mumkin. Axborot texnologiyalari (ayniqsa Internet) va qo'l telefonlari xuddi shunday texnologiyalar sifatida qaraladiki, ular o'zaro aloqalarni yaxshilash vositasi va axborotlarni olish vaqtini axtarishni qisqartiradilar. Internetning asosiy afzalligi shundaki, u millionlab kompyuterlar va boshqa elektron asboblarni o'zaro bog'lashga qodir bo'lib, axborot va bilimlarni keng yoyilishini ta'minlab, xizmat ko'rsatishni bir lahzada amalga oshiradi. Mazkur texnologiyalarning paydo bo'lishi ko'p afzalliklar qatori, afsuski, muayyan muammolarni ham kelib chiqishiga ham sabab bo'ldi. Ulardan eng sezilarlisi havfsizlikka va kishilarning shaxsiy hayotiga tahdiddir. Ayniqsa aholining putur yetishi oson qismi bo'lgan yoshlarga ta'siri ko'proqdir. Negaki, ular o'z-o'zidan ma'lum bo'lgan sabablarga ko'ra, eng ko'p darajada shavqu zavq va tashabbus bilan mazkur texnologiyalardan foydalanadilar. Elektron makondan (jumladan, ijtimoiy tarmoqlardan) foydalanishning salbiy oqibatlarini sifatida nafaqat odam savdosi va yoshlarni terroristik tashkilotlarga jalb qilish kabi tahdidlar, balki ularni qo'rqitish yo'li bilan qandaydir amallarni bajarishga majbur qilish, aks holda, ularni o'ldirish kabi xabarlar keng tarqatilmoqda.

Keyingi yillarda ushbu muammolarni hal qilishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar faqat O'zbekistonda emas, balki chet ellarda ham olib borilmoqda. AQSH va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda mazkur kiber tahdidlarga qarshi qaratilgan (ingl. *cyber* – axborot texnologiyalari va Internetga mansub) va ularni oldini olishga mo'ljallangan maxsus ta'lim dasturlari qabul qilinmoqda. “Kiber tahdid” istilohi ijtimoiy tarmoqlar bo'lgan (Feysbuk, Telegram va boshqa), veb saytlar, tekst axborotlari, chatlar va forumlar uchun dasturiy vositalar (axborotlarni va fikrlarni ayriboshlash) va boshqa turdagi veb saytlarni qo'llash vositasida elektron texnologiyalardan foydalanishni nazarda tutadi. Ko'p hollarda, yuqorida aytilganlardan tashqari, kiber tahdid taktikalari amaliyotida quyidagilar ham qo'llaniladi:

- **Alangalanish** – qo'rqinch, jahl, haqorat va boshqa salbiy his-tuyg'ularni keltirib chiqaruvchi xabarlar;
- **Ta'qib qilish** – davomli ravishda haqoratli va dag'al xabarlarni to'qib chiqarib, ularni tarqatish bilan qo'rqitish;
- **Buhton** – inson haqida unga ziyon yetqazish va uni obrusiga putur yetqazish maqsadida xabar tarqatish yoki uni nashr etish;
- **Taqlid qilish** – o'zining kimligini yashirgan holda boshqalarning akkauntini sindirish orqali ular qiyofasini buzib ko'rsatish vositasida ularning obrui va havfsizligiga ziyon yetqazish;
- **Firibgarlik** – kimnidir o'zi biladigan qandaydir xabardan uni ham ogoh qilishga yoki tasvirlashga majburlab, uning roziligisiz keyinchalik bu xabarni Internet orqali tarqatib yoki tekst xabari vositasidama'lum qilish;
- **Chiqarib tashlamoq** – qurbonlarga nisbatan to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita ularni xafa qiladigan xabarlarni yuborish va unda shuni qayd etishki, ular

ijtimoiy faoliyatning qismi emaslar, yoki ularga nisbatan dushmanlik va g'azab uyg'otish yoki bo'lmasa ularni boshqalar tomonidan surib chiqarish;

- **Kiber suhbatlar** – qurbonlarga nisbatan to'xtovsiz ravishda qo'rqituvchi xabarlarini yuborish yoki ularning hayotlari xavfsizligiga va ularning qarindoshlari va yaqinlariga nisbatan tahdid qilish (Williams 2015).

Mazkur tahdidlarni oldini olish uchun AQSH va Buyuk Britaniyaning o'quv muassasalarida ikki tomonlama shartnoma asosida tasdiqlangan axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha maxsus qoidalarini joriy qildilar. Shartnomada axborot texnologiyalari va Internet manbalaridan foydalanishning o'quv yurtidagi siyosati aniq ko'rsatilishi lozim, ulardan noto'g'ri foydalanishning oqibatlarini haqida o'quvchilardan imzo qo'yish taqozo qilinadi hamda ko'rsatilgan qoidalariga rioya qilishga ularning roziligi bu vositalardan foydalanish huquqidan oldin olinadi. Ko'proq ko'ngildagidek foyda olish jihatidan ma'muriyat o'quvchilarga ularga muvofiq keladigan treningni tavsiya qilishi mumkinligi, bunda ham axborot texnologiyalari manbalaridan to'g'ri foydalanish ko'zda tutiladi. Agar yoshlarga tez-tez texnologiyalardan foydalanish siyosati bo'yicha treninglar o'tqazish tavsiya qilinsa yoki Internetdan foydalanishning xavfsizligiga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlansa, o'quvchilarning uni tushunishi osonlashadi va ular qayd etilgan protokollarga aniqroq rioya etadilar. Bundan tashqari, masalan, oldini olishning quyidagicha qo'shimcha choralarini qabul qilish mumkin:

- Axborot texnologiyalaridan foydalanishning jinoiy oqibatlarini qayd etish (masalan, o'quv yurtida axborot texnologiyalaridan foydalanish imtiyozidan mahrum qilish) va ro'y bergan hodisadan ota-onalarni xabardor qilish;
- Kiber tahdidga duchor bo'lgan o'quvchilarga shuni ma'lum qilishki, bunda ularning aybi yo'q va ular hamma vaqt xodimlarning yordamidan bahramand bo'lishiga umidvor bo'lishlari mumkinki, ular bilan trening o'tqazishlari yoki bunday hollarda nima qilishlari lozimligi yoki bo'lmasa yashirin psixolog yoki o'qituvchilarga murojaat qilishlari lozim;
- Faol talabalar orqali yosh o'quvchilarga foydalanish qoidalarini maxsus axborot sessiyalari orqali yetqazish, bunda shuni qayd etish lozimki, o'quv yurtida barcha o'quvchilarga nisbatan madaniy munosabat mavjud bo'lib, barchaga hamma vaqt va har yerda onlayn me'yorini qo'shgan holda hurmat ko'rsatiladi;
- O'quvchilarga shuni ma'lum qilish lozimki, kiber tahdid faqat qurbonlargagina emas, balki g'arazli maqsadlarni amalga oshiruvchilarga ham ta'sir o'tqazishi mumkin;
- Yoshlardan shuni iltimos qilish lozimki, kiber tahdid (yoki boshqa ko'rinishdagi tahdidlar) ro'y berganda uni saqlash yoki rasmini olish, ya'ni ro'y bergan hodisadan guvohlik sifatida muayyan choralarni ko'rish uchun uni qayd etish;
- Talabalarga Internetdagi o'z parollarini saqlash va uni fosh qilmaslikni boshqa ijtimoiy tarmoqlarda ham joriy qilishni eslatish.

Kiber tahdidlarni oldini olish masalalarida boshqa tadqiqotchilar shuni tavsiya qiladilarki, Internet xavfsizligi bo'yicha treninglar o'tqazish bilan chegaralanmaslik kerak. Negaki, ular muayyan mavzuda bir marta bo'ladigan ma'ruzalar kabi foydasi kam bo'lib, yoshlar ongida hamma vaqt ham qolavermaydi. Bunga qarama-qarshi

holda ular shuni tavsiya etadilarki, ta'limning shunday yo'nalishini kuchaytirish kerakki, unda hayotiy ko'nikmalar, kitob o'qishning foydasi, ijtimoiy o'zaro faoliyat va emotsional holatlardan xabardor bo'lmoq lozim (Finkelhor 2014, Gaiman 2013).

O'quv yurtlardagi ta'lim yorqin ifodalangan ijtimoiy, emotsional va o'quv tarkiblaridan iborat. Talabalar bir o'zlari o'qimasdan, ko'p hollarda o'qituvchilar, o'z kursdoshlari va ota-onalarining tadbiriy xohishlari bilan o'zaro faoliyatda bo'ladilar. O'quv jarayonida his-tuyg'u kuch-quvvat bahsh etishi yoki o'quvdagi diqqat-e'tiborga, ishchi ahloqiga, burchga va umuman muvaffaqiyatga erishishga halal berishi mumkin. Buning sababi shundaki, munosabatlar va emotsional jarayonlari shunga ta'sir etadiki, u yerda nimalar o'qitiladi. O'quv yurtlari (maktablar va oliy o'quv yurtlari) shuni nazarda tutishlari kerakki, foydali jihatlar nimalardan iborat bo'lib, ular o'quv jarayonida talabalar foydasiga nimalarni olib keladi. Afsuski, ko'plab talabalarda ijtimoiy va his-tuyg'u salohiyati yetishmaydi va ular o'zlarini borgan sari o'quv yurti bilan kam miqdorda bog'lashadilar. Ushbu yetarli bo'lmagan aloqa ularning o'zlashtirishlariga, xulq-atvorlariga va salomatliklariga salbiy ta'sir o'tqazadi.

Umuman aytganda, ta'lim-tarbiya xodimlari, siyosatchilar va ekspertlar orasida shunday keng tarqalgan tushuncha mavjudki, ta'lim-tarbiya tizimi shunday talabalarni chiqarishi kerakki, ular asosiy o'quv mavzularidan yaxshi xabardor bo'lib, boshqalar bilan yaxshi ishlash qobiliyatiga ega bo'lib, o'zlarining kasb qilib olgan ijtimoiy va his-tuyg'uli ko'nikmalarini namoyish etishga, sog'lom xulq-atvorlarini amalda qo'llab, atrofdagilarga nisbatan ma'suliyatli munosabat va hurmat-e'tiborda bo'lishlari lozim.

Keng miqyosdagi uzliksiz tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, foydali ravishda ijtimoiy va his-tuyg'uli salohiyatga ega bo'lish eng yaxshi o'zlashtirishga hamroh bo'lib, ko'rsatilgan ko'nikmalarga yetarlicha e'tibor bermaslik turli xil shaxsiy, ijtimoiy va o'quv muammolarining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ko'plab klinik va oldini olishga qaratilgan yoshlar taraqqiyotiga doir tadqiqotlarning natijalari shunday ta'sir o'tqazuvchi deb atalmish dasturlarni ishlab chiqishga turtki berdiki, ular yoshlarni shu yo'nalishdagi ijtimoiy va his-tuyg'uli ma'lumotlarini (IHM) davom ettirishga yo'naltirilgan.

IHM dasturi – bu shunday asosiy salohiyatni jalb etishga qaratilgan jarayonki, u his-tuyg'ularni bilish va ularni boshqarish, ijobiy maqsadlarni ko'ndalang qo'yish va unga erishish, boshqalar fikrini tan olish, ijobiy munosabatlar joriy etish va ularni qo'llab-quvvatlash, ma'suliyatli qarorlarni qabul qilish va shaxsiyatlar o'rtasidagi vaziyatlarni konstruktiv hal etishni taqozo etadi. IHM dasturining maqsadi bir-biriga bog'liq bo'lgan besh bilishga oid, his-tuyg'u va xulq-atvorga ega bo'lgan quyidagi salohiyat rivojiga turtki berishdir: o'z-o'zini tushinish (o'zini tahlil qilish), o'z-o'zini boshqarish, ijtimoiy ogohlik, o'zaro munosabatda ko'nikma hosil qilish va ma'suliyatli qaror qabul qilish (Durlak 2011).

Mazkur dasturni joriy qilish uchun tadbirlar rejasini ishlab chiqish lozimki, bunda ekspertlarni (psixologlar, o'qituvchilar, konsultantlar va boshqalarni) jalb qilish hamda talabalarining o'zlarini tashabbuslarini rag'batlantirish ko'zda tutiladi. Chet eldagi o'quv yurtlarining tajribasi misolida, talabalarining o'zlari tashkil etgan hamjamiyatlari va klublarini rag'batlantirish, bunda esa o'zlari afzal deb bilgan narsalarga e'tibor berishga harakat qilingan. Masalan, chet tillarni o'rganish klublari,

kitobxonlar klubi, munozara (debat) modeli, huquqshunoslar jamiyati, ko'ngillilar guruhi, yosh tadqiqotchilar, san'at va rassomchilik, turli sport klublari va boshqalar. Doimiy ravishda psixologlar tomonidan IHMning rivojlanish dasturiga muvofiq turli treninglar o'tqazilmoqda.

Klub faoliyati erishilgan yutuqlarni qayd etish tizimi joriy etilganligi yordamida tashviq qilinib, boshqariladi, ya'ni universitet tomonidan berilgan salohiyatga erishgan talaba fahriy yorliq bilan mukofotlanib, universitetni tamomlagani haqidagi diplom bilan bir qatorda unga topshiriladi. Ushbu qayd etilgan yozuv talabani profaylida u erishgan yutuq guvohonmasi sifatida, jumladan, uning o'quv jarayonida tashqardagi natijasi sifatida saqlanadiki, bu narsa uni ishga qabul qilishda juda ham qimmatga ega bo'lishi mumkin.

Talabalarning bo'sh vaqtlarini mazkur klublar faoliyati bilan to'ldirish mumkindirki, o'quv yurtining ma'muriyati tomonidan muayyan resurslarni talab qiladi. Kiber tahdidlarning o'ziga xos ayrim masalalarning rol o'ynaydigan spektakl ko'rinishida (teatr klubi), bahs holatida (BMT modeli, Yosh parlamentchi va Yosh Rahbar) talabalar muhokamasiga olib chiqish mumkin. Talabalarni ko'proq jalb qilish maqsadida ularning qo'shimcha klublarni ochish haqidagi talablarni qondirish uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratish lozim.

Shuni aytish ham lozimki, o'quv dasturi shunday tashkil etilishi kerakki, talabalar qo'shimcha mustaqil ravishda og'zaki va yozma vazifalarni bajarishi bilan band bo'lishi kerak. Odatda, ushbu vazifalar auditoriya mashg'ulotlari paytida qarab chiqilmaydi. Mustaqil ish alohida olingan holda baholanishi lozim, bu esa talabani o'z ustida ishlashga rag'batlantiradi. Ana shunday sharoitdagina axborot texnologiyalari va Internet manbalari qo'shimcha ma'lumot olish uchun ko'zda tutilgandek foydalaniladi, talabada jismoniy jihatdan boshqa narsalarga vaqt yetishmay qoladi.

Bundan tashqari, talabalar ish bilan band etish siyosati rag'batlantirilib, ularning stajirovka va amaliyotlari turli firmalar va tashkilotlarda o'quv mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtda o'tkazilishi kerak. Buning uchun ish beruvchilar bilan yaqin aloqada bo'lib, doimiy ravishda talabalarga bo'sh o'rinlarni e'lon qilishni ta'minlash lozim. Shunday ish va amaliyot jarayonidagi bandlikgina IHM dasturiga muvofiq talabalarda yuqorida ko'rsatilgan salohiyatlarni shakllanishiga yordam beradi.

Xulosa qilib, shuni qayd etmoq lozimki, mashg'ulotlar va tadbirlar bilan to'la bo'lgan talabalar xayoti na faqat kiber tahdidlardan havfsizlikni ta'minlaydi, balki umuman noma'qul xatti-xarakatlarni bartaraf etib, elektron makondan tashqari bo'lgan jismoniy xayotdagi ko'ngilsizliklarni ham oldini oladi.

Yevropa va Yaqin Sharqda ochiq ta'lim maydoni va talabalar uchun tanlash erkinligi mavjud.

Dunyoning hech bir davlatida tyutorlik tizimi ishini nazorat qilish uchun normativ-huquqiy baza mavjud emas; bu endigina Rossiyada shakllantirilmoqda.

Tyutor ishining asosiy shakli – individual maslahatchidir.

Germaniya va Birlashgan Arab amirliklari universitetlarida tyutorlik ham kunduzgi, ham masofaviy ta'limga joriy qilingan.

Tyutorning bajaradigan umumiy vazifasi talabani o'qishga jalb etish, ya'ni talaba bilan birgalikda uning individual ta'lim trayektoriyasi (yo'nalishi)ni tuzish va uni amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Tyutorlik hamkorligi – bu talabaning ta'lim motivlari va qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirishga, individual ta'lim dasturini yaratish uchun ta'lim resurslarini izlashga, oilaning ta'lim tartibi bilan ishlashga, shaxsni shakllantirishga qaratilgan ta'limni individuallashtirish bo'yicha pedagogik faoliyat. Tyutorning barcha savollari, birinchi navbatda, ushbu ta'lim maydonini ochiq joyga aylantirishdan oldin har bir talabaning mavjud ta'lim maydonini "kengaytirish"ga qaratiladi.

2011-yilning 16-dekabrida Barnaul (Rossiya)da Mintaqalararo tyutorlik assotsiatsiyasining seminari bo'lib o'tdi, unda o'z-o'zini tashkil etishda shaxsiy o'sish bosqichidan kelib chiqqan holda tyutorlik faoliyati tyutorlikni qo'llab-quvvatlash natijalarini shaxsning o'z o'zini tashkillashtirishdagi o'sishi tarzida quyidagicha davrlashtirish mumkinligi haqidagi g'oya ilgari surildi:

Birinchi bosqich – maqsadlarning namoyon bo'lishi, anglanishi va unga intilish, asosiy vazifa esa tarbiyalanuvchi o'z harakatlari yo'nalishini belgilab olishi kerak. Natija shuki, tyutor o'z maqsadini mustaqil ravishda aniqlay olishga qodir, uni qabul qilgunga qadar shu maqsadga diqqatini qaratadi.

Ikkinchi bosqich – tyutorant o'z maqsadiga erishish uchun kerakli narsalarni qidiradi, tanlaydi, baholaydi.

Uchinchi bosqich – umumiy ishda hamkorlik. Bu yerda tyutor shogirdiga mustaqil ishtirokchiga aylanishi, boshqalarning maqsadlarini tushunishi, bir-birlarining resurslaridan umumiy maqsadda foydalanish qobiliyatini, ya'ni birgalikdagi faoliyatda sherik bo'lishni baholashga yordam beradi.

To'rtinchi bosqich – umumiy imkoniyatlarni yaxshilash uchun qo'shma tadbirlarni tashkil etish. Bu yerda tyutor o'qituvchiga "kelajakga qarash" va hozirgi paytda faol harakat qilishni o'rganishga yordam beradi.

Shunday qilib, bir tomondan, o'qituvchi navigator sifatida o'qituvchiga o'z o'zini tashkil etish va shaxsiy o'sishning qaysi bosqichida ekanligini tushunishga yordam beradi hamda o'z rivojlanishiga subyektiv pozitsiyani egallash, o'quv jarayonida o'zini subyekt sifatida rivojlantirish mexanizmlarini o'zlashtirishga yordam beradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, tyutorni qo'llab-quvvatlash bir-biriga bog'liq bo'lgan tashxislash, loyihalash, amalga oshirish, tahliliy bosqichlar shaklida namoyon bo'ladi. Ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega hamda o'qituvchi va talaba uchun ishlashning muayyan usullarini taklif qiladi.

2.3. Oliy ta'lim muassasalaridagi talabalarning mutolaa madaniyati va kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish.

KIRISH

Kitob (bitik) barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni o'rgatuvchi murabbiydir.

(Amir Temur)

Oliy ta'lim muassasalaridagi talabalarning mutolaa madaniyati va kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha **uslubiy tavsiyalar** O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 13-sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ-3271-sonli qaroriga muvofiq oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar o'rtasida mutolaa madaniyati va kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida ishlab chiqildi va u O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida faoliyat yuritayotgan barcha oliy ta'lim muassasalariga tegishli sanaladi.

O'z yurti va Vatanida – jannatmakon O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlarga, buyuk o'zgarishlarga o'zini daxldor deb bilgan har bir yosh, har bir fuqaro ushbu **uslubiy tavsiyalarda** nazarda tutilgan qoidalarga bo'ysunishi belgilab qo'yiladi.

Uslubiy tavsiyalarda fuqarolarning erkinliklari, huquq va burchlariga hech qanday monelik qilmagan holda, yoshlarni kitob o'qishga, bebaho yozma manbalarda targ'ib etilgan bilim va ko'nikmalarni mukammal egallashga da'vat etiladi.

Shuningdek, u xalqimiz ma'naviyatining eng sara namunalari o'z ifodasini topgan, hamyurtlarimizning orzu-umidlari, intilishlari, g'am-g'ussalari, o'zbeklarning uzoq va shonli tarixi bayon etilgan badiiy asarlarni qadrlash, tengdoshlari va aholi o'rtasida targ'ibotini yo'lga qo'yish, kitobning ta'lim-tarbiya tizimidagi hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan o'rnini belgilashga yaqindan yordam beradi.

Uslubiy tavsiyalarda elektron kitoblardan, virtual kutubxonalardan unumli foydalanish ham nazarda tutilgan.

Uslubiy tavsiyalarda nazarda tutilgan qoidalarga ko'ra Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning kitobxonlik va mutolaa madaniyati darajasini o'rganish, kitobxonlik va mutalaa madaniyatini targ'ib qilish, rivojlantirish, bu borada yaxshi natijalarga erishgan jamoalar va yakka shaxslarni rag'batlantirish, topshiriqlarni bajarmagan tashkilotlar uchun tegishli intizomiy choralar ko'rish vakolatini saqlab qoladi.

Onggu tafakkurini charxlovchi qudratli beminnat vosita

Dunyoda elatlar, millatlar ko'p. Ularning har biri murakkab tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Bu jarayonda qadimgi ajdodlardan keyingi avlodlarga juda ko'plab moddiy va nomoddiy materiallar meros bo'lib qolgan. Ular orasida insoniyat ongi va tafakkuri, ruhiyatining ulkan hamda betakror ifodasi bo'lmish **KITOB** ning o'zni benihoya kattadir. Bu borada o'zbek xalqining omadi chopgan. Umumjahon madaniy va ilmiy-adabiy merosining sezilarli qismi qadim ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan.

Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Ahmad al-Farg‘oniy, Imom al-Buxoriy singari Sharq mutafakkirlari tomonidan turli sohalarda bitilgan kitoblar bugun insoniyatning bebaho xazinasini sanaladi. Ularning merosini sinchkovlik bilan o‘rganish, taqqoslash, keyingi faoliyatimiz uchun zaruriy xulosalar chiqarib olish, shu yurt, shu Vatan, ona Turon – Turkiston nomi bilan faxrlanish, bizni oq yuvib, oq taragan xalqimiz, ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylab voyaga yetkazgan hamyurtlarimiz oldidagi muqaddas burchimizdir. Bu borada bizga mayoq vazifasini o‘tovchi, eng to‘g‘ri va maqbul yo‘lni ko‘rsatuvchi vosita bu – kitobdir.

Bugun shiddat bilan davom etayotgan globallashuv jarayonlari, ma’lumotlarning beto‘xtov oqimi, “ommaviy madaniyat” dunyodagi ko‘plab xalqlarning hayoti izdan chiqishiga sababchi bo‘lib qolmoqda. Ezgu g‘oyalar yo‘liga g‘ov bo‘layotgan g‘ayriijtimoiy tarmoqlar, buzg‘unchilik, zo‘ravonlik, yengil-yelpi hayotni targ‘ib qilayotgan internet saytlari, uyali aloqa vositalari yoshlarni **KITOB** deb atalmish buyuk ne‘matdan, hayot kechirishning qudratli vositasidan biroz uzoqlashtirib qo‘ydi. Ularning ta’sirida saviyasi past, g‘oyaviy jihatdan chiniqmagan, irodasi sust yoshlar o‘z yo‘llaridan osongina adashib qolmoqdalar va yovuz niyatli g‘alamis kimsalarning o‘ljasiga aylanmoqdalar.

Insoniyat zuryodini yovuz kuchlar qo‘lidan qutqarib qoluvchi, ularning irodasini mustahkamlovchi, ma’naviy dunyosini boyituvchi, ongu tafakkurini charxlovchi qudratli beminnat vosita ham bu – **KITOB**dir.

“Kitob bo‘lmasa, kitobdan yog‘ilib turgan ziyo bo‘lmasa, inson taraqqiyotining hozirgi yorug‘ cho‘qqisiga yetmas edi”, – deb yozgan edi buyuk o‘zbek adiblaridan biri G‘afur G‘ulom.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: *“Kitob bu ma’naviyat, ma’naviyat – bu kitobdir”,* – deydi.

Talaba yoshlarga binichi navbatda quyidagi tushunchalarni singdirish maqsadga muvofiq sanaladi.

KITOB [arabcha yozilgan, muqovalangan asar] 1 Ma’lum matnli varaqlardan iborat, juzlab an, muqovalangan, hajmi 48 sahifadan kam bo‘lmagan bosma (qadim qo‘lyozma ham) asar. 2 Umuman, ma’lum shaxs, voqea-hodisaga oid tugal, odatda nashr etishga (kitob bo‘lishga) mo‘ljallangan asar.

KITOBOT [arabcha yozuv, yozish; yozuvli lavha] eskicha Yozish, ko‘chirib yozish, yozuv.

Kitobot san’ati Qo‘lyozma kitoblarni yaratish, ularga bezak berish.

KITOBXON [kitob+forscha o‘quvchi, o‘qiydigan] Kitob o‘quvchi. *Kitobxonlar anjumani.*

KUTOBXONA yoki axborot resurs markazi Kitoblar qo‘yilgan joy, xona. Yoshlarning kitob o‘qishi, mutolaa qilishi uchun barcha shart-shroitlar yaratib berilgan, zamonaviy texnika vositalari, axborotlar bilan ta’minlangan dargoh.

KITOBXONLIK Kitobxonlik, birgalikda kitob o‘qish

MUTOLAA [*arabcha* diqqat bilan o‘qish, o‘rganish] Diqqat bilan o‘qish, o‘qib tushunib olish. *Otabek jiddiy ravishda Fuzuliy mutolaasiga berildi.* (Abdulla Qodiriy)

MADANIYAT [*arabcha* shahar, sivilizatsiya]

1. Jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, madaniy-ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmui. *Bugungi Toshkent – yirik sanoat, fan va madaniyat markazlaridan biri.*

2. Biror ijtimoiy guruh, sinf yoki xalqning ma’lum davrda qo‘lga kiritgan shunday yutuqlari darajasi. *Nutq madaniyati.*

3. O‘qimishlilik, ta’lim-tarbiya ko‘rganlik, ziyolilik, ma’rifat. *Madaniyatga erishmoq.*

4. Madaniyatli shaxs talablariga javob beruvchi sharoit. *Turmush madaniyatini yuksaltirish*

5. *Qishloq xo‘jaligida* O‘simlik yoki ekinning turlarini yetkazish, o‘stirish, yetishtirish. *Dehqonchilik madaniyatiga erishmoq.*

MADANIYATLI. Madaniyatga erishgan, ma’daniyatni egallagan; ma’rifatli.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda mazkur **uslubiy tavsiyalarda** quyidagi maqsadlar nazarda tutiladi:

1. O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotning eng sara namunalarini talaba yoshlar o‘rtasida targ‘ib qilish, talabalarni ular bilan tanishtirish.

2. Jahon adabiyotining chop etilgan eng sara namunalarini talaba yoshlar tomonidan mutolaa qilinishini tashkil etish.

3. Kitoblarning elektron variantlarini talabalarga taqdim etish va mutolaasini yo‘lga qo‘yish.

4. O‘zbek va jahon adabiyoning eng yaxshi namunalarini Internet tarmog‘i, jumladan, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish orqali yosh avlodda adabiyotga mehr-muhabbat uyg‘otish.

5. Talaba yoshlarni milliy g‘oya va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda kitobning ahamiyatini oshirishga erishish.

6. Oliy ta’lim muassasalarida muntazam ravishda faoliyat ko‘rsatadigan kitob do‘konlarini tashkil etish.

7. Talabalar bilan badiiy adabiyot bo‘yicha suhbatlar tashkil etish, yangi nashrlar taqdimotlarini o‘tkazish

8. Talaba yoshlarning axborot madaniyati va zamonaviy mutolaa madaniyatini va fikrlash saviyasini yanada oshirish maqsadida ijtimoiy faol yoshlarni ko‘ngillilar harakatiga jalb etish.

9. Talabalar orasida turli tanlovlar o‘tkazish.

10. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning darsdan keyingi bo'sh paytlarida qanday badiiy, ilmiy, publitsistik asarlar o'qiyotganini nazoratga olish.

11. Talabalarning kitobxonlik va mutolaa madaniyati bo'yicha guruhlararo monitoring olib borish.

12. Respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasalari axborot-resurs markazlari ish faoliyatini to'g'ri tashkil etish.

13. ARM laridagi adabiyotlarni, birinchi galda badiiy adabiyotlarni xatlovdan o'tkazish.

14. ARM badiiy adabiyotlar jamg'armasini muntazam boyitib borish.

15. "O'zbek mumtoz adabiyoti sarchashmalari kutubxonasi" rukni ostida chop etilayotgan kitoblar ko'rgazmasini tashkil etish.

16. Fakultetlar va kafedralar bilan hamkorlikda kitobxonlar anjumanlarini tashkil etish.

17. Oliy ta'lim muassasalari foyelari, zallarida muntazam ravishda yangi kitoblar ko'rgazmalarini tashkil etish.

18. Shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish.

19. Navoiyxonlik, boburxonlik, furqatxonlik, muqimiyxonlik kabi tadbirlarni uyushtirish.

Shuningdek, talaba-yoshlar o'rtasida kitobxonlik va kitob mutolaasini yo'lga qo'yishning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilanadi:

1. Yoshlarning tarbiyasiga ta'sir qila oladigan, jahon va o'zbek adabiyotiga oid sara asarlar targ'ibotini muntazam yo'lga qo'yish.

2. Televideniye ko'rsatuvlari, radio eshittirishlari orqali badiiy asarlar reklamasini qilish.

3. Ko'chalarda, metro va avtobus bekatlarida eng yaxshi asarlardan olingan hikmatli so'zlarni yozib qo'yish.

4. Talabalar orasida o'qilgan eng yaxshi kitob haqida so'zlab berish musobaqalarini tashkil qilish.

5. Haftada bir marta guruhlarda "Mutolaa soati" o'tkazish, unda eng yaxshi hikoya yoki she'r ifodali o'qish va auditoriyada muhokama qilish.

6. Talabalarning asar mualliflari bilan uchrashuvlarini, suhbatlarini uyushtirish.

Bu maqsadga quyidagilar orqali erishiladi.

1. Kitobxonlik orqali talabalarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishga qaratilgan maxsus "Mutolaa kurs"lari tashkil etish. Mutolaa kurslarida bobolarimizning o'tmish (qissaxonlik, navoiyxonlik, bedilxonlik kabi qiroat yoki g'azalxonlik kechalari shaklidagi) tajribalari misolida har hafta yoki oyning muayyan kunlarida belgilangan asarni mumtoz kuy-qo'shiqlar uyg'unligida jamoa bo'lib o'qish, tinglash va muhokama qilishga odatlantirish asosida mashg'ulot tashkillashtiriladi. Bunday tadbirlar darsdan tashqari talabalarning bo'sh paytlarida o'tkaziladi.

Global tarmoqqa ulangan ta'lim muassasasi saytida "Mutolaa xizmati"ni tashkil etish orqali belgilangan maqsadni amalga oshirish mumkin. Xususan:

- "Kitob bilan do'stlashuv", "Muloqotda bo'l!" kabi sahifa va ruknlar tashkil etish;
- mazkur sahifalarga mustaqil o'qish uchun adabiyotlar ro'yxatini kiritish;
- mutolaa qilinganlar yuzasidan On-line muloqotlar o'tkazish;
- olib borilgan izlanish, tadqiqot natijalarini elektron portfolio shaklida rasmiylashtirish.

2. "Mutolaa kundaligi" yuritish talabalarning bog'lanishli nutqini o'stirishda muhim o'rin tutadi. Asar muallifi, nomi, chop etilgan joy, nashriyot, sana va sahifalar bilan bog'liq ma'lumotlarning qayd etilishi o'qilganlarni hisobga olishda asosiy mezon sanaladi. Asar annotatsiyasi, taqrizchilar ism-sharifi, mashhur shaxslarning adib ijodi haqidagi fikrlarini topib yozish yoki kitobdan o'rin olgan suratlar haqida bahs yuritish, qahramonlar taqdiri yuzasidan xulosalar chiqarish, syujetning muhim qismlari, kompozitsiyasini belgilash bog'lanishli nutq ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

3. Kutubxonalar, kitob do'konlari, muzeylarga sayohatlar uyushtirish; On-line imkoniyatlariga ijodiy yondashib video-konferensiya, mediya-muloqot, taqdimot, slayd-leksiya; adabiyot dekadalari, interfaol ko'rgazmalar, viktorina kabi ommaviy tadbirlar o'tkazish talabalarning mutolaaga qiziqishini oshirish, bilish jarayonlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Quyidagi ishlar talabalarning kitobxonlik darajasi va nutq malakasini o'stirishga yordam beradi:

- matnda ilgari surilgan g'oya va badiiyatni anglashga o'rgatish;
- asar syujetidagi muhim holat va qahramon hayotining burilish nuqtalarini aniqlash;
- mustaqil ijodiy ishlar shaklidagi hisobotlar tayyorlash;
- ijodiy ishlarda tabiat manzaralari, joy tasvirlari yoki qahramonlar xatti-harakatlarini tavsiflash;
- tengdoshlari ijodiy ishlariga taqrizlar uyushtirish asosida muayyan xulosalarni shakllantirish.

4. Ijodiy topshiriqlar o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- a) talabani badiiy asar, adabiy-tanqidiy maqolalar mohiyatini yoritishga qaratilgan savollar tuzishga o'rgatish;
- b) adabiy qahramonlar va voqea-hodisalarni o'zaro qiyoslab fikr yuritish;
- v) turli mavzularda suhbat, bahs-munozaralar uyushtirish va hokazo.
- d) mavzuviy portfoliolar yaratish.

5. Maqola, taassurot, insho, taqriz, matn, ma'ruza, annotatsiya kabi yozma ishlar mustaqil mutolaa asosida talabalarning yozma nutqini rivojlantiradi.

Maktub yozish usuli biror yozuvchining ijodi bilan yaqindan tanishtirishga, qahramonlar taqdiri yuzasidan o‘zaro fikr almashib, munosabat bildirishga o‘rgatishi bilan samarali hisoblanadi.

6. Muzeylarga uyushtiriladigan ekskursiyalar jamoat joylarda o‘zini tutish, atrofdagilar bilan muomala qilish madaniyatini tarbiyalaydi, yozuvchi hayoti va ijodi yuzasidan ko‘rganlarini yozma shaklda ifodalash malakasini shakllantiradi.

7. Talabalar axloqiy-estetik tarbiyasida muhim o‘rin tutadigan spektakl, badiiy, hujjatli, video filmlar asosidagi taassurotlar rejissyor mahorati, aktyorlar ijrosi, tanlangan dekoratsiyalar, mavzuning jamiyat uchun qay darajada dolzarbligini asoslashga yordam beradi.

8. Badiiy matnlarni yod olish va ifodali o‘qish ham mustaqil ishlarning samarali turidir. Yod aytish chog‘ida ovoz chiqarib o‘qish, ko‘rish, eshitish singari nutq va xotira turlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

9. Hikoya qilish talabalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi, his-tuyg‘ulari va nutqini boyitish orqali tahlilga tayyorlaydi. Matn mazmunini izchil bayon qilishda talaba unga nisbatan shaxsiy munosabatini ko‘rgazmalar va ishonarli dalillar bilan ifodalash ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Asar mazmunini og‘zaki tasvirlash har qanday adabiy janrga mansub asar matni ustida ishlashda qo‘llanilishi mumkin.

Talabalar asar mazmunini so‘z vositasida obrazli tasvirlashda oldindan bayon rejasi belgilab olinishi, zaruriy ko‘chirmalar tanlanishi, personajlar qiyofasi, nisbiy tugallangan lavhalar, tasviriy ifodalar aniqlanishi, tabiat manzaralari izchillik bilan yoritilishi talab etiladi.

10. Matn ustida ishlashning yana bir turi o‘zlashtirilgan bilimlar asosida mo‘yqalam va ranglar, kompyuterning “Paint” dasturi imkoniyatlaridan foydalanib grafik tasvirlash usulidir. Bu jarayonni tashkil etishdan avval talabalar tasvirlanadigan parcha yoki misralar bilan yaqindan tanishib chiqishi zarur.

11. Inssenirovkalash talabalarning aqliy va hissiy faoliyati uchun katta imkoniyatlar yaratadi. U badiiy asar matniga nisbatan tadqiqiy munosabatni chuqurlashtiradi, sahna varianti ma‘nodor va ta’sirchan bo‘lishini ta’minlaydi.

Inssenirovkalash talabalardan badiiy asar poetikasini chuqur o‘rganishni, o‘z nutqida adabiy tushunchalarni qo‘llash mahoratini talab etadi. Buning uchun quyidagicha faoliyat turlari amalga oshirilishi rejalashtiriladi:

- 1) inssenirovka uchun maqbul lavhalarni belgilash;
- 2) tanlangan parchalarni nomlash;
- 3) rollarni taqsimlash, personajlar nutqi ustida ishlash;

Shuningdek, barcha ta’lim muassasalarida kitobxonlik va mutolaa madaniyatini targ‘ib qilish maqsadida quyidagi hikmatli so‘zlar va asosiy tushunchalarni ko‘zga ko‘rinarli joylarga banner tarzida ilib qo‘yish tavsiya etiladi.

Shu bilan birga quyidagi **uslubiy tavsiyalarga** amal qilinsa maqsadga muvofiq bo'lishi uqtiriladi:

1. Kitobni bo'sh vaqtda mutolaa qilishga o'rgatish. Kutubxona yoki uyda o'qishni yo'lga qo'yish. Ayrim asarlarni o'qishga talabalar bilan maxsus tayyorgarlik ko'rish, ularni o'qish uchun aniq vaqt belgilab olishga odatlantirish (masalan, dam olish kunlari, ta'tilda, ishdan bo'sh, ijodiy kunlarda va hokazo).

2. Mutolaa jarayonida asarda uchraydigan hikmatli so'zlar, ma'qul bo'lgan jummalarni alohida kundalikka yozib qo'yishga o'rgatish. Bu kitobdan olinadigan taassurotni yanada jonlantirib, uning mazmuni kitobxon xotirasida chuqur o'rnatilib qolishiga imkon beradi. Mashhur adiblarning kitoblaridan o'rinli iqtiboslar keltirish, davralarda va tadbirlarda chiroyli parchalar va she'rlar ijod etish madaniyatli insonning birlamchi belgilaridan hisoblanadi. Hikmatli gaplar va diqqatga sazovor fikrlarni alohida daftarga yozib qo'yish yoki markerlar yordamida belgilab borishni yo'lga qo'yish.

3. Ba'zi o'rinlarda kitobni ovoz chiqarib ham o'qishga o'rgatish. Bunda kitobxonning nutq ravonligi va nutq madaniyati rivojlanadi. Ovoz chiqarib o'qishni kitobxonlar davrasida guruh bo'lib o'qish tadbirlarida yoki uyda, hech kimga xalaqit bermagan holda amalga oshirish mumkin. Birinchi holatda kitobxon boshqalar oldida ifodali o'qishni o'rganish bilan bir qatorda boshqa kitobxonlar bilan tajriba almashadi, ularning qimmatli tavsiyalarini oladi, boz ustiga, kitobni ovoz chiqarib o'qish kitobning tahlili va muhokamasiga ulanib ketadi. Bu ishlar nutq hamda chiroyli qiroat ko'nikmalarini oshiradi. Ma'lumki, ko'pgina sohalarda matnni chiroyli va tushunarli o'qish, uni tushunish va tushuntirib bera olish talab etiladi. Demak, badiiy kitobni guruh bo'lib yoki yakka holda ifodali o'qish odamlar bilan ishlaydigan, ko'pchilik oldida gapiradigan kasb sohiblari uchun kerakli ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi;

4. Kitob tanlashni qiziqishidan kelib chiqqan holda har bir talabaga o'rgatish. Masalan, jahon adiblari asarlaridan bexabar kishi, albatta, ular bilan tanishishi lozim. Agar kimdir o'zbek adiblarining asarlarini o'qimagan bo'lsa, avvalo, o'qishi kerak bo'lgan asarlar ro'yxatini shakllantirib, navbati bilan tanishishni maslahat bergan bo'lardik. Bundan tashqari, asarlarni janriga ko'ra ajratish ham maqsadga muvofiq. Tarixiy hamda bugungi kundan hikoya qiluvchi romanlar, hajviyalar va hikoyalar – bularning bari bilan har bir kitobxon tanishib borishi lozim deb hisoblaymiz;

5. Kitobxonlarni o'zlari o'qigan kitoblarni do'stlari, oila a'zolari va hamkasblariga tavsiya qilib borishga odatlantirish. Bundan tashqari, kitobdan olingan taassurotlarni maxsus daftarga yozdirib borish yaxshi samara beradi. Buning natijasida o'qilgan kitob mazmuni va asosiy g'oyalari xotirada yaxshi saqlanadi.

XULOSA

Talabalar o'rtasida kitobxonlik va mutolaa madaniyatini targ'ib qilish, shakllantirish va rivojlantirish umumilliy ahamiyatga ega bo'lib, talaba yoshlarni kitobxonlik madaniyati va mutolaaga o'rgatish jarayonida ularning faolligi ta'minlanadi, tafakkuri o'stiriladi.

So'nggi 30 yil ichida jahon miqyosida kitob nashr etish 3 baravar, adadi 4 baravarga ko'paydi. Bu holat biz – o'zbek xalqi farzandlarini ham ogohlikka, kitobdan bahramand bo'lishga chorlaydi.

Mustaqillik yillarida kitobxonlik va nashr masalalariga bag'ishlagan 10 dan ortiq Qonunlar, 30 dan ziyod qonun osti hujjatlarining qabul qilinganligi bu sohada amalga oshiriladigan ishlar ko'lami va ahamiyatining naqadar katta ekanligini bildirib turibdi.

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan 1677 ta matbaa korxonalari, 118 ta nashriyot, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 14 ta viloyatlardagi ARM lari, 200 dan ortiq korxona va tashkilotlardagi axborot resurs markazlari yuqoridagi ezgu ish uchun xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari "Kitob olami", "Sharq ziyokori" "Ijod" jamoat fondi orqali ham o'quvchilarga talab etilgan kitoblar yetkazib berilmoqda.

Bularning barchasi kitobxonlik va mutolaa madaniyatining hayotimizdagi beqiyos o'rnini belgilab beradi.

Buni bilishimiz va o'quv-tarbiyaviy jarayonlarga tatbiq etishimiz davr talabi sanaladi.

MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN MASALALAR:

1-masala

Oliygozlarda axborot maonida ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish imkoniyatlarini tizimli tahlil qiling?

№	Oliygozlarda tarbiya klasteri asosida ustoz-shogird an'analarini rivojlantirish, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimi nimalardan iborat?	Mavjud muammolar?	Muammolarni bartaraf etish mexanizmi?
1.			
2.			

2-masala

Oliy ta'lim muassasalarida talaba yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yurt tarixiga va ajdodlar merosiga hurmat hissini shakllantirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha muammolar va ularning yechimlarini tahlil qiling?

№	Tyutorlik faoliyatidagi eng muhim funktsiyalar	Mavjud muammolar?	Muammolarni bartaraf etish mexanizmi?
1.			
2.			

Nazorat savollari:

1. "Mafkuraviy profilaktikaning qanday xususiyatlari bor?
2. G'oyaviy tarbiyadan maqsad nima?
3. Milliy g'oya nima?
4. Milliy g'oyani targ'ib qilishda qaysi tamoyillardan foydalanish kerak?
5. G'oyaviy tahdidlar haqida qisqacha ma'lumot bera olasizmi?
6. Yot g'oyalarga qarshi kurashish uchun nimalarga e'tibor berish lozim?
7. Yot g'oyalarning oldini olish va ularga qarshi kurashishda nimalarga tayangan ma'qul?
8. G'oyaviy tarbiyaning vazifalari nimalardan iborat?

3- MAVZU: Tyutorlar faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish

Reja:

1. Tyutorlikda qo'llaniladigan asosiy AKT vositalari
2. AKT vositalari orqali talabalar bilan aloqani samarali yo'lga qo'yish
3. Elektron hujjat yuritish va monitoring tizimlari
4. Tyutorlar uchun onlayn platformalar va ilovalar

Ma'ruza natijasida tinglovchi:

- AKT vositalaridan foydalanib tyutorlik faoliyatini samarali tashkil etish yo'llari;
- Talabalar bilan tezkor muloqot qilish uchun zamonaviy platformalarni tanlash va ishlatish;
- Elektron hujjatlarni yuritish tartibi va monitoring qilish;
- Axborot xavfsizligi va maxfiylik tamoyillariga rioya qilish kabi tushuncha, bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'ladi.

Mavzu bo'yicha dars olib borish metodikasi:

- ✓ Ma'ruzani o'tish jarayonida texnologik xaritada ko'rsatilgan axborot-kommunikativ va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanilishi nazarda tutiladi;
- ✓ Ma'ruza mavzusining dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni haqida tushuncha beriladi;
- ✓ Mavzuga oid milliy va xalqaro normativ hujjatlar bilan tanishtiriladi va tahlil qilinadi;
- ✓ Reja asosida slaydlar yordamida qonunosti normalarini huquqiy tartibi tushuntiriladi;
- ✓ Qonunosti hujjatlari o'rganiladi va tahlil qilinadi;
- ✓ Munozarali (nazariy) savollar o'rta tashlanadi va ularga baho beriladi;
- ✓ Muammoli masalalar tarqatiladi va ularning yechimi eshitiladi;
- ✓ Zaruriyat tug'ilganda, masala va savollar uyga topshiriq sifatida beriladi;
- ✓ Asosiy tushunchalar, savol-javoblar umumlashtirilib, ma'ruzaga yakun yasaladi;
- ✓ AKT vositalarida amaliy mashqlar (masalan: Google Formsda so'rovnoma tuzish)

Tayanch tushunchalar:

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) – axborotlarni yig'ish, saqlash, uzatish, tahlil qilish va ulardan foydalanish imkonini beruvchi texnologiyalar majmuasi. Tyutorlar bu vositalar orqali talaba bilan muloqot, nazorat, monitoring va hisobot yuritishni amalga oshiradilar.

Elektron jurnal – tyutor tomonidan talabaning ijtimoiy faolligi, tarbiyaviy holati, muammolari va ular bilan olib borilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni raqamli shaklda (masalan: Excel, Google Sheets) yuritiladigan hujjat.

Google Forms / Microsoft Forms – so'rovnoma, test va ro'yxatga olish shakllarini onlayn tarzda yaratish, tarqatish va natijalarni avtomatik tahlil qilish imkonini beruvchi bepul web-ilovalar. Tyutorlar ularni talabalar bilan aloqa va tahlil qilish uchun ishlatadi.

Telegram bot – Telegram messenjeri orqali ishlaydigan avtomatlashtirilgan hisoblar bo'lib, ular orqali tyutorlar talabalar bilan muloqot qilish, ma'lumot to'plash, eslatmalar yuborish va monitoring olib borishlari mumkin.

Elektron hisobot – Tyutor tomonidan har oy yoki semestr yakunida tayyorlanadigan, raqamli shaklda tuziladigan va rahbariyatga taqdim etiladigan faoliyat natijalari hujjati. Word, PDF yoki onlayn platformalar orqali tayyorlanadi.

Onlayn muloqot platformalari (Zoom, Teams, Google Meet) – Talabalar bilan real vaqt rejimida onlayn suhbat, yig'ilish va maslahatlar o'tkazish imkonini beruvchi dasturiy platformalar. Tyutorlar masofaviy tarbiyaviy ishlarda keng foydalanadi.

3.1. Tyutorlikda qo'llaniladigan asosiy AKT vositalari.

Hozirgi globallashuv davrida yoshlarda tarbiyalash lozim bo'lgan fazilatlarni, jumladan, — Vatanga sadoqat, o'zaro mehr oqibat, yuksak mas'uliyat, bag'rikenglik, sog'lom dunyoqarash, kitobxonlik va media madaniyat, shukronalik, huquqiy, siyosiy, AKT savodxonligi, innovatsion fikrlash, vatan taraqqiyotiga daxldorlik, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ishlarda yangicha, zamonaviy, kreativ yondashuvlarni talab qiladi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar olayotgan axborot, uning mazmuni, saviyasiga nisbatan ortda qolyapmiz. Bugun aynan ijtimoiy tarmoqlar katta minbarga aylangani, yoshlarni shu minbarga chiqayotganlar tarbiya qilayotganini hisobga olishimiz kerak.

Albatta, oliy ta'lim muassasalari tomonidan faollar zalida 100-200 talaba uchun tadbir o'tkazilishining ta'sir doirasi bilan Facebook, Instagram, Youtube, Tik-Tok kabi ijtimoiy tarmoqlarning 100 minglab yoshlarimiz ongu shuuriga qanday ta'sir o'tkazayotganini taqqoslab bo'lmaydi.

Agar ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan axborot va uning yoshlar tarbiyasiga ko'rsatayotgan salbiy ta'sirini puxta o'rganmasak, bu jarayondan ortda qolsak, ma'naviy-ma'rifiy sohada sezilarli bo'shliq yuzaga kelishi ehtimoli katta.

Shuning uchun ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarga ta'sirini jiddiy o'rganish, tahlil va tadqiq qilish, shu asosda auditoriyalarda tashkil etiladigan eski shakldagi, yetarli samara bermaydigan, quruq ma'ruzabozlikdan iborat tadbirlar o'rniga ijtimoiy tarmoqlarni muttasil kuzatib boradigan, axborotlarni tahlil qiladigan, zarur hollarda tegishli axborotga tezkor munosabat bildirish ko'nikmasiga ega malakali mutaxassislar ishtirokidagi davra suhbatlari, brifing, press-klub, ochiq muloqot shaklidagi zamonaviy tadbirlarga e'tibor qaratish lozim.

Qolaversa, qobiliyatli talaba yoshlar bilan hamkorlikda tarbiyaga yo'naltirilgan qisqa roliklar tayyorlanishiga sharoit yaratish kerak.

Shuning uchun barchamiz har bir oliy ta'lim muassasasida professor-o'qituvchilar, mas'ullar va rahbar-xodimlarning OAV hamda nufuzli ijtimoiy tarmoqlarda oliy ta'lim muassasasi hayoti va faoliyati, ta'lim-tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy ishlar, amalga oshirilayotgan islohotlar targ'iboti bo'yicha materiallar berib borishini ustuvor masala sifatida kun tartibiga qo'yishimiz lozim.

Bir so'z bilan aytganda, har bir oliy ta'lim muassalarida professor-o'qituvchilar, iqtidorli talabalar salohiyatidan samarali foydalanadigan media laboratoriyalar faoliyatini tashkil etilishi bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

yoshlar ongu shuurida yuzaga kelayotgan o'ziga xos ijtimoiy-ma'naviy, ruhiy o'zgarishlar oliy ta'lim tizimida sohadagi ishlarni zamonaviylik, muhimlik va samaradorlik, ta'sirchanlik nuqtayi nazaridan to'liq qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy oliy ta'lim muassasasida tyutorlik faoliyati faqat an'anaviy shakldagi ishlarga tayanmaydi. Raqamli transformatsiya jarayonlari tyutorlardan ham

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalanishni talab etadi. Bu nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki shaffoflik, tezkorlik va natijaviylikni ham ta'minlaydi.

Elektron jurnallar (Excel, Google Sheets):

Tyutorlik faoliyatini hujjatlashtirishning eng qulay shakllaridan biri – elektron jurnal yuritishdir. Ular orqali:

Har bir talabaning tarbiyaviy, ma'naviy, ijtimoiy faollik darajasi qayd etiladi;

Faoliyat dinamikasi vizual ko'rinishda tahlil qilinadi;

Avtomatik jadval va grafiklar tuzish mumkin.

Masalan: Tyutor 30 nafar talabaga ega bo'lsa, ular bo'yicha ishtirok, uchrashuvlar, ijtimoiy loyihalardagi faollikni har oy Excel jadvaliga kiritadi.

Google Forms va Microsoft Forms:

Bu vositalar yordamida tyutorlar:

So'rovnomalar, testlar, refleksiya shakllarini yaratadi;

Talabalarning psixologik holati, qiziqishlari, muammolarini tahlil qiladi;

Natijalarni avtomatik tahlil qilish orqali tez xulosa chiqaradi.

Masalan: Haftalik "Kayfiyat monitoringi" so'rovnomasi orqali har bir talabadan 2 daqiqalik javob olinadi va shaxsiy yondashuv belgilanadi.

Telegram botlar va guruhlar:

Telegram messenjeri tyutorlar uchun universal vositaga aylangan:

Guruhlar orqali e'lonlar, eslatmalar yuboriladi;

Botlar orqali avtomatik holat so'rovlari, hisobotlar yig'iladi;

Har bir talabaga alohida yozmasdan, shablon xabarlar orqali tezkor muloqot o'rnatiladi.

Masalan: "Tyutor_2024_bot" orqali har yakshanba talaba darsga tayyorligi va sog'lig'i haqida ma'lumot jo'natadi.

Onlayn muloqot platformalari (Zoom, Teams, Google Meet):

Ushbu platformalar tyutorlik suhbatlari va maslahatlarini masofaviy tashkil qilish imkonini beradi:

Karantin davrida yoki safarda bo'lgan talaba bilan aloqa uzilmaydi;

Guruh yig'ilishlari yoki individual intervyular o'tkaziladi;

Onlayn "tarbiyaviy soat"lar, "motivatsion sessiyalar" o'tkazish mumkin.

Masalan: Har oyda Zoom orqali "motivatsiya va rejalashtirish" mavzusida onlayn muloqot o'tkaziladi.

Elektron hujjat aylanishi va hisobotlar (Word, PDF):

Tyutorlar elektron shakldagi hujjatlarni:

Oliy ta'lim muassasasi bo'limlariga elektron pochta orqali yuboradi;

O'zining faoliyatini PDF formatda rasmiylashtirib taqdim etadi;

OneDrive yoki Google Drive'da hujjatlarni saqlaydi va baham ko'radi.

Rejalashtirish va monitoring vositalari:

Tyutor o'z ish faoliyatini tartibga solish uchun:

Talabalar bilan uchrashuv rejalari;

Har bir student bo'yicha "ish kartasi";

Yillik faoliyat rejasini raqamli taqvimga joylashtiradi.

Xulosa:

AKT vositalarining tyutorlik faoliyatiga kirib kelishi uni nafaqat qulay, balki professional darajada tizimli qiladi. Har bir tyutor o'z yo'nalishiga mos vositalarni tanlab, raqamli savodxonlik asosida ulardan foydalana olishi zarur. Bu esa talaba bilan sifatli muloqot, samarali tarbiyaviy yondashuv va ishonchli monitoringni kafolatlaydi.

Nazorat uchun savollar:

Tyutorlik faoliyatida AKTdan foydalanishning qanday afzalliklari bor?

Tyutorlikda qaysi AKT vositalari eng samarali deb hisoblanadi?

Elektron jurnal yuritishda nimalarga e'tibor berish kerak?

Mustaqil tayyorlash uchun masalalar / topshiriqlar:

Google Forms yordamida talabalar uchun haftalik holat-monitoring so'rovnomasini tuzing.

Telegram botlar yordamida talabalar monitoringini tashkil etish bo'yicha g'oya taklif qiling.

Onlayn platformalardan birini tanlab, o'quv-tarbiya muloqoti ssenariysini yozing.

3.2. AKT vositalari orqali talabalar bilan aloqani samarali yo'lga qo'yish

Zamonaviy ta'lim tizimida talaba bilan uzluksiz, samarali va tezkor aloqa o'rnatish tyutor faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bu jarayonni soddalashtiradi, tezlashtiradi va shaffoflashtiradi. AKT vositalaridan samarali foydalanish orqali talabalar muammolari tez aniqlanadi, maqsadli maslahatlar beriladi va ijtimoiy-ruhiy qo'llab-quvvatlash kuchayadi.

Aloqani yo'lga qo'yishdagi asosiy AKT vositalari

Telegram guruhlar va botlar:

Telegram eng ommaviy va tezkor aloqani ta'minlovchi vosita sifatida tyutorlar tomonidan keng qo'llaniladi.

Imkoniyatlari:

Xabarlar va eslatmalarni birdaniga barcha talabaga yetkazish

Savolnoma, so'rovnomalar o'tkazish

Botlar orqali avtomatik javoblar, ishtirok monitoringi, kayfiyat tahlili olib borish

Google Forms / Microsoft Forms:

Ushbu vositalar orqali talabalar bilan interaktiv aloqani o'rnatish mumkin.

Qo'llanilishi:

O'quv jarayonidan tashqari faoliyatni baholash

Talabalar fikri, ehtiyojlari va shikoyatlarini yig'ish

Rivojlanish monitoringi

Safarda, kasal bo'lib qolgan yoki ishtirok etolmagan talabalar bilan muloqot

Guruh bo'yicha muammolarni ochiq muhokama qilish

Motivatsion sessiyalar, onlayn maslahatlar

Elektron kundalik va monitoring tizimlari (Excel, CRM):

Talabalar bilan individual ishlashda elektron kuzatuv jadvallari yordam beradi.

Qo‘llanishi:

Har bir talabaga oid qaydlar, ogohlantirishlar, yutuqlar

Avtomatik ravishda hisobotga aylantirish

Ijtimoiy faollik, sog‘liq, motivatsiya bo‘yicha kuzatuvlar

Onlayn test va viktorinalar (Quizizz, Kahoot, Google Quiz):

Talabaning bilim saviyasi va tarbiyaviy faoliyatidagi tushunchalarini aniqlashda foydalidir.

Aloqa samaradorligini oshiruvchi omillar

Doimiylik va tizimlilik: Har bir aloqa aniq va muntazam bo‘lishi kerak

Ijobiy ohang: Tyutorlik munosabatida quvvatlovchi, tushunuvchi yondashuv ustun bo‘lishi lozim

Shaxsiylashtirilgan aloqa: Har bir talabaga yondashuv individual bo‘lishi kerak

Samarali aloqa natijalari:

Talaba o‘zini e‘tiborda deb his qiladi

Muammolar erta bosqichda aniqlanadi

Talabaning motivatsiyasi va ijtimoiy faolligi oshadi

Tyutor faoliyati samarali baholanishi mumkin bo‘ladi

Xulosa:

Tyutorlik faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda talabalar bilan aloqani samarali tashkil etish, faqat muloqotni emas, balki ishonchli va natijaviy pedagogik muhitni shakllantirish imkonini beradi. Har bir tyutor o‘z tajribasiga mos vositalarni tanlab, ular orqali talabalarni rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash va yo‘naltirish imkoniga ega bo‘ladi.

3.3. Elektron hujjat yuritish va monitoring tizimlari

Zamonaviy boshqaruvda aniqlik, tezkorlik va shaffoflik asosiy tamoyillar bo‘lib qolmoqda. Tyutorlik faoliyatida ham aynan shu omillar muvaffaqiyat mezoniga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, elektron hujjat yuritish va monitoring tizimlari tyutorlik ishini samarali tashkil qilish, hisobot berish, tahlil qilish va qaror qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Elektron hujjat yuritish tushunchasi va uning ahamiyati

Elektron hujjat yuritish — bu tyutor faoliyatida talabalar bilan bog‘liq barcha ma‘lumotlarni raqamli shaklda saqlash, qayd etish va tahlil qilish tizimidir.

Asosiy afzalliklari:

Ma‘lumotlar xavfsizligi va arxivlanishi

Qayta ishlash va tahlil qilish qulayligi

Hisobotlar yaratish tezligi

Muvofiqlik va shaffoflik

Tyutorlar yuritishi lozim bo‘lgan asosiy elektron hujjatlar:

Talaba shaxsiy kartasi (Excel orqali): tug‘ilgan sanasi, yashash manzili, ijtimoiy holati, ota-onasi, telefon raqamlari, to‘lov-shartnoma holati, kasalliklar tarixi, ijtimoiy faolligi va h.k.

Ishchi reja (Google Docs/Word/Excel): oyning yoki semestrning rejalari

Faoliyat hisobotlari: o‘tkazilgan uchrashuvlar, suhbatlar, yig‘ilishlar haqida qisqacha yozuv

Muammoli talabalar ro‘yxati: va ular bilan olib borilgan ishlar tarixchasi

Motivatsion yozuvlar va baholashlar: har bir talabaning yutuqlari, rag‘batlantirish yoki ogohlantirishlar

Monitoring tizimlari: mohiyati va vazifalari

Monitoring — bu ma’lum bir faoliyatga doir doimiy, tizimli, rejalashtirilgan kuzatuv jarayoni.

Tyutorlik monitoringi quyidagilarni qamrab oladi:

Talabaning ishtiroki va intizomi

Darsdagi davomati va baholari

Tashqi ko‘rinish va shaxsiy madaniyati

Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlardagi faolligi

Ijtimoiy va ruhiy holati

Elektron monitoring vositalari:

Excel asosidagi kuzatuv jadvallari:

Soddaligi, sozlanishi va filtrlanish imkoniyati tufayli eng ommaviy vosita hisoblanadi.

Hisobotlarni avtomatlashtirish va vizualizatsiya qilish:

Grafiklar va diagrammalar: Talaba holati yoki ijtimoiy faollikni tushunarli ifoda etish

Samarali elektron hujjat yuritish bo‘yicha tavsiyalar:

Hujjatlar bir tizim asosida yuritilishi kerak.

Har bir uchrashuv va suhbat elektron qayd etilishi kerak (sana, muammo, natija)

Har oyda yakuniy tahliliy hisobot tuzish foydali

Talabalar shaxsiy ma’lumotlari maxfiyligi ta’minlanishi shart

Ish yuritish uchun namunaviy fayl shablonlaridan foydalanish

Xulosa:

Elektron hujjat yuritish va monitoring tizimlari tyutor faoliyatini raqamlashtirish, samaradorlikni oshirish va nazorat qilishda muhim vosita hisoblanadi. Har bir tyutor bu vositalarni puxta o‘zlashtirgan holda talaba bilan ishlash jarayonini tizimli va zamonaviy tarzda tashkil qilishi lozim.

Agar xohlasangiz, ushbu ma’ruza asosida taqdimot slaydi, monitoring jadvali shabloni, yoki test savollari ham tayyorlab bera olaman. Shuni davom ettiraymi?

4- MAVZU: Tyutorlik faoliyatini nazorat qilish va samaradorligini baholash

Reja:

1. Tyutorlik faoliyatining nazorat qilish zaruriyati
2. Ichki va tashqi nazorat shakllari
3. Tyutorlik faoliyatining samaradorlik ko‘rsatkichlari
4. Baholash mezonlari va metodlari

5. Tahlil qilish, hisobot va takomillashtirish mexanizmlari

Ma'ruza natijasida tinglovchi:

- Tyutorlik faoliyatini baholash va nazorat qilish mexanizmlarini tushunish;
- Tyutor ishini samaradorlik ko'rsatkichlari asosida tahlil qilishni o'rganish;
- Tahlil natijalari asosida takomillashtirish bo'yicha qaror qabul qilishni o'zlashtiradi.

Mavzu bo'yicha dars olib borish metodikasi:

Slaydli ma'ruza (vizualizatsiya yordamida tushunishni osonlashtirish)

Real amaliyotdan olingan misollar tahlili (case study)

Guruhli muhokamalar (kichik guruhlarda baholash mezonlari ustida ishlash)

Interaktiv savol-javob

Baholash jadvallari bilan ishlash (rubrika, ball tizimi)

Tayanch tushunchalar:

samaradorlik ko'rsatkichlari – tyutorlar tomonidan funksional vazifa va majburiyatlari ijro etilishining samaradorligi va natijadorligini baholash uchun qo'llaniladigan hamda miqdor jihatdan o'lchash mumkin bo'lgan baholash indikatorlari;

samaradorlik ko'rsatkichlarining prognozi – hisobot davri uchun ishlab chiqiladigan va erishilishi ko'zlanayotgan rejayiy ko'rsatkichlar;

samaradorlik ko'rsatkichlarining fakti – tyutor tomonidan hisobot davrida samaradorlik ko'rsatkichlariga haqiqatda erishilganligi ko'rsatkichi;

samaradorlik ko'rsatkichlarining vazni – vazifalarning muhimligi, murakkabligi va ularni bajarishga sarflanadigan vaqtdan kelib chiqib, bir chorak uchun maksimal vazndagi samaradorlik ko'rsatkichlarining ulushi (ahamiyati);

samaradorlik ko'rsatkichlari baholash elektron platformasi – tyutorlar uchun samaradorlik ko'rsatkichlarining prognozini, shuningdek, ular faoliyatining samaradorligini baholash natijalarini aks ettiruvchi hamda ma'lumot almashinuvini nazarda tutuvchi axborot tizimi.

V.Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 592 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: "O'zbekiston", 2018. – 507 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.

7. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni.

8. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrda qabul qilingan “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” Qonuni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847- sonli Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-sonli Farmoni.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-200-son Qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-54-son Qarori.

II. Maxsus adabiyotlar

14. O.Ummatov, B.Husanov, S.Xudoyqulov, M.Boysariyev, A.Amonov, N.Do‘simbetova, O.Ernazarov, N.Eshnaye, S.Mirzayeva. Oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini amalga oshirish (takliflar, tavsiyalar, uslublar). O‘quv qo‘llanma –Toshkent. 2023

15. Erkin Umarov, Mahmud Abdullayev “Ma’naviyat asoslari”. O‘quv qo‘llanma -T., 2006.

16. M.Handamova “Ma’naviyat asoslari”. O‘quv-uslubiy qo‘llanma – Samarqand. 2014.

III. Elektron ta’lim resurslari

17. <http://www.lex.uz>

18. <http://www.norma.uz>

19. <http://www.yuz.uz>

20. [http:// www.strategy.uz](http://www.strategy.uz)

21. <https://president.uz>

22. [http:// www.edu.uz](http://www.edu.uz)

23. [http:// www.lib.bimm.uz](http://www.lib.bimm.uz)

24. [http:// www.oyina.uz](http://www.oyina.uz)



TELEGRAM



INSTAGRAM



FACEBOOK



YOUTUBE



20
25



+998-71-202-01-20



<https://bimm.uz>